

Oktabr, 2024-yil



KONFERENSIYA TO'PLAMI

**MILLIY TARAQQIYOT
STRATEGIYASI: O'ZBEKISTONDA
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH
MASALALARI VA XALQARO
TAJRIBALAR TAHLILI**

ilmiy-amaliy konferensiya

MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI VA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

ilmiy-amaliy konferensiya
to‘plami

Toshkent - 2024

MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI VA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

**Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

**Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar:
X.Topilov, R.Shodmonov**

“Milliy taraqqiyot strategiyasi: O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘nlab olimlar va tadqiqotchilarni metodologik tahlillarga chorladi va natijada mavzu doirasida yangi xulosa va takliflar ishlab chiqishga erishildi.

Mazkur konferensiya to‘plamida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, aholining zaif qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy adolatni ta‘minlash, inklyuziv ta‘lim, ekologik kelajak va raqamli transformatsiya masalalariga bag‘ishlangan 5 ta sho‘ba bo‘yicha ilmiy ishlar jamlangan. To‘plam orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha eng ustuvor masalalar, davlatning hal qiluvchi kuch sifatidagi strategiyalari, mintaqamiz va mentalitetimizga mos keladigan xalqaro tajribalar bilan tanishishni tavsiya qilamiz.

Tahririyat kengashi:

***Sherzod Mustafakulov** – Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Odiljon Qo‘ysinov – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonniyoz Panjiyev – Musiqa fanlari doktori (DSc), professor
Mahamadsiddiq Amonboyev – Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Alisher Jo‘rayev – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Mirza Tulayev – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Najmiddin Qodirov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Dilafro‘z Miraliyeva – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nigora Lutfullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Dilshod Nasriddinov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Munis Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Baxtigul Tolipova – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xasan Sabirov – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Zulfiya Xamidova – Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*



SO'Z BOSHI

Hurmatli professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va talabalar!

Bugungi kunda yoshlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yo'nalish nafaqat yoshlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, balki ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va shaxsiy rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro Nordik universiteti tomonidan tashkil etilgan ushbu ilmiy-amaliy konferensiya aynan shu maqsadlarga erishish yo'lida muhim qadam bo'lmoqda. Konferensiyada ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning ilmiy ishlari va izlanishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Baraqrar rivojlanish maqsadlarining birinchisi bo'lmish, kambag'allikni bartaraf etish, aholi daromadlarini yanada ko'paytirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va yuzaga chiqayotgan muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz, universitetimiz ma'muriyati, bunday konferensiyalar orqali yoshlarimizning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish, ularni yangi ilmiy kashfiyotlarga ilhomlantirish hamda kelajakda yetakchi mutaxassislar sifatida shakllanishiga ko'maklashish niyatidamiz.

Fursatdan foydalanib, ilmiy anjumanimizda ishtirok etgan barcha olim va tadqiqotchilarga, shuningdek, ekspertlarga o'z minnatdorchiligimni izhor etaman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli yosh tadqiqotchilar ilm-fanning yangi cho'qqilarini zabt etishi va yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishlariga ishonamiz.

Yuqori saviyada tashkil etilgan ushbu konferensiya hamkorlik va tajriba almashinuvi uchun noyob imkoniyat yaratib, yoshlarimizni yanada ilg'or bo'lishga undaydi.

Kelgusida ham birgalikda ulkan ilmiy-amaliy marralarni zabt etamiz degan umiddaman!

Hurmat bilan,
Sherzod Mustafakulov,
Xalqaro Nordik universiteti rektori 



MUNDARIJA:

Шарипов К. А. <i>Автосаноат корхоналари халқаро маркетинг тизимини шакллантириш</i>	6
Nosirova F.F. <i>Islomiy sug`urtalash – takofulning mohiyati, an`anaviy sug`urlash usullaridan farqli jihatlar</i>	13
Nosirova F.F. <i>Islomiy moliya instrumenti mushorakaning iqtisodiy amaliyotlarga tatbiqi</i>	16
Akhrorova N.U. <i>The role of visa policies for student tourism development: opportunities and challenges</i>	19
Sultonov B.T. <i>Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti modellari va biznes yuritish faoliyatining o`ziga xos mezonlari</i>	27
Мустафакулов Ш.И. <i>Меҳнат барометри: касбий бандликни баҳолаш ва уни такомиллаштиришнинг ўзбекистон учун манфаати нимада?</i>	33
Набиева А.М., Муталипова З.У. <i>Социальная защита — важная часть нашего национального мировоззрения</i>	43
Сирожиддинов Ш.С. <i>Тўхтамас ислохотлар ёшлар келажакига мустаҳкам замин ҳозирлайди</i>	53
Shodmonov R.G., Mustafakulov Sh.I. <i>Green innovations in Uzbekistan: opportunities and challenges</i>	59
Ibragimova F.A. <i>Development of fintech as a catalyst for financial inclusion: a pathway to poverty reduction</i>	71
Raxmatullayeva D.R., Omonova X.T. <i>Raqamli texnologiyalar asosida yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish</i>	80
Tashtanova D.E. <i>Milliy taraqqiyot strategiyasi: O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili</i>	85
To'qliyev A.B. <i>Sanoat korxonalarida moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirishning strategik zarurati va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri</i>	92



I SHO'BA:

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH: KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA ULARNING ROLI



АВТОСАНОАТ КОРХОНАЛАРИ ХАЛҚАРО МАРКЕТИНГ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Муаллиф: Шарипов Конгратбай Авезимбетович

Аффилиция: Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазири

E-mail: vazir@edu.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13895011>

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4853-1575>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада автосаноат корхоналари учун халқаро маркетинг тизимини шакллантириш масалалари ўрганилган. Мақолада халқаро маркетингнинг назарий асослари, автосаноат корхоналари учун глобал бозорлар талаблари, рақобатбардошликни ошириш йўллари ва бренд стратегиялари муҳокама қилинган. Ўзбекистон автосаноатининг ривожланишига таъсир этувчи омиллар ва экспорт салоҳиятини ошириш учун зарур бўлган маркетинг стратегиялари таҳлил қилинган. Ўзбекистонлик олимларнинг илмий ишлари асосида автосаноат корхоналари учун халқаро маркетинг ёндашувларини ривожлантириш бўйича амалий тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: автосаноат, халқаро маркетинг, рақобатбардошлик, экспорт стратегиялари, Ўзбекистон автосаноати, маркетинг коммуникациялари, бренд стратегиялари, глобал бозорлар

КИРИШ

Халқаро савдо муносабатлари экспорт ва импорт операцияларини амалга оширишда, турли халқаро тендерлар ўтказиш, инвестициялар жалб қилишда, товар ва хизматлар кўринишида намоён бўлиб, мамлакатларнинг иқтисодий ривожланиши ва жаҳоннинг турли бурчакларида фаолият юритувчи трансмиллий корпорациялар манфаатларига хизмат қилмоқда.

Халқаро маркетинг давлатларнинг ташқи бозор конъюнктураси асосида миллий ишлаб чиқаришни шакллантириш, мамлакатлар ихтисослашуви ва турли компанияларнинг ташқи иқтисодий, савдо фаолиятини ташкил қилиши, бошқарув ва назоратнинг марказлашуви билан тавсифланади. Товар ва хизматларнинг мамлакатлар бўйлаб кўчиб юриши билан боғлиқ ушбу мураккаб жараён – халқаро маркетинг заруратини юзага келтиради. Чунки жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви мамлакатлар ва турли минтақавий тузилмаларнинг халқаро ихтисослашувини кучайтиради ва ўзаро товар ва хизматлар айирбошлашнинг ривожланишига хизмат қилади. Бундай ҳолат товар ва хизматларнинг ташқи бозорда силжишида барча омиллар ва ҳужалик алоқаларининг турли шаклларини ҳисобга олишни талаб этади.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Халқаро маркетингнинг ривожланиши бозор талаби, рақобат шароити ва глобал интеграция жараёнларига боғлиқ. Котлер халқаро маркетингни корхоналар ўз маҳсулот ва хизматларини халқаро бозорга олиб чиқиши жараёни сифатида таърифлайди. Шунингдек, халқаро маркетингда бренд стратегияси, маҳсулот дифференциацияси ва бозор сегментацияси каби омиллар муҳим рол ўйнайди.

Автосаноат халқаро маркетингда етакчи ўринни эгаллайди, чунки бу соҳа юқори даражада глобал интеграциялашган. Автосаноатдаги йирик компаниялар, масалан, Toyota, Volkswagen ва Генерал Моторс каби ишлаб чиқарувчилар ўз маҳсулотларини халқаро бозорларга экспорт қилиш орқали катта муваффақиятга эришган. Ўзбекистонлик олимлардан Н.А. Ниёзметовнинг тадқиқотлари автосаноат корхоналарининг маркетинг стратегиялари ва уларнинг экспорт салоҳиятини оширишга йўналтирилган.

Ўзбекистонда автосаноат ривожланиши ҳақида А.Р. Қодиров, Б.А. Каримов каби олимлар ёзган бўлиб, уларнинг ишлари асосан иқтисодий ўсиш ва саноат тармоқларининг рақобатбардошлигини ошириш масалаларига қаратилган. Ушбу тадқиқотлар Ўзбекистондаги автосаноатнинг экспорт салоҳиятини ошириш учун халқаро маркетинг стратегияларини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади.

Юқоридаги адабиётлар таҳлили кўрсатадики, автосаноат корхоналари халқаро маркетинг тизимини шакллантиришда глобал маркетинг ёндашувларидан фойдаланган ҳолда локал шароитларни ҳам инобатга олишлари зарур. Ўзбекистонлик олимларнинг тадқиқотлари эса халқаро маркетинг стратегияларини ишлаб чиқиш ва уларни амалиётда қўллашда муҳим аҳамият касб этади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ушбу тадқиқот ишларини амалга оширишда илмий тадқиқот методологиясида кенг қўлланиладиган усуллардан фойдаланилди. Автосаноат корхоналари халқаро маркетинг тизимини ўрганишда умумийликдан индивидуалликка ва аксинча тартибда дедукцион ёки индукцион усуллардан фойдаланиш самара берса, абстракт-мантиқий фикрлаш усули эса жараёни тизимли таҳлил қилишда аҳамиятлидир. Илмий таҳлил жараёнида ана шу илмий тадқиқот усулларидан, хусусан, кузатиш, умумлаштириш, гуруҳлаш, таққослаш, таҳлил қилишда эса синтез ва таҳлил усулларини кенг фойдаланилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги кундаги ташқи иқтисодий муносабатларнинг халқаро меҳнат тақсимооти асосида ихтисослашуви, мамлакатлар ва минтақавий интеграцион тузилмалар ўртасида объектив, барқарор савдо-сотиқ муносабатларни намоён этади. Жаҳон иқтисодиётида халқаро маркетингнинг шаклланиши халқаро меҳнат

тақсимоти, халқаро ихтисослашув ва кооперацияга ҳамда ҳўжалик фаолиятининг байналминаллашувига асосланган объектив жараён ҳисобланади¹.

Бироқ ғарб мамлакатлари иқтисодий адабиётларида халқаро маркетингни фақат савдо-сотиқни миллий бозор чегараларини кенгайтиришга уриниш деб қаралмайди. Бу масаланинг кейинги жиҳати шундаки, халқаро маркетингда хорижий истеъмолчига “муайян бурчак” остида қараш орқали, ташқи бозорни ижтимоий-маданий муҳитини хусусиятлари ва муайян давлатда компания хатти-ҳаракатининг стратегияси ва тактикасини ишлаб чиқиш бўлса, бошқа бир жиҳати халқаро маркетинг бошқарув функция сифатида намоён бўлиб, у халқаро маркетинг фаолияти ташкилий, режалаштириш ва назорат қилиш орқали амалга оширилади².

Халқаро маркетингнинг ушбу жиҳати германиялик маркетинглоглар таърифига мос келади. Чунки миллий компанияларнинг турли мамлакатлар ишбилармонлигининг фаоллиги ва маркетинг қарорлари халқаро концепция таъсирида қабул қилинади³. Бироқ франциялик маркетинглоглар миллий компаниянинг хорижий бозорни эгаллаши ва кейинчалик етарли миқдорда мижозларни сақлаб туриш тадбирлари мажмуаси тизими сифатида қарайдилар⁴.

Халқаро компаниялар ташқи бозорда товар ва хизматларни муваффақиятли силжитиш халқаро маркетинг имкониятларидан – замонавий ишлаб чиқаришни ташкил этиш ҳамда товар сотиш ва хизмат кўрсатиш тизими, жаҳоннинг товар бозорлари конъюнктураси ва истеъмолчилар талаб ва эҳтиёжлари тадқиқотларидан самарали фойдаланишдан иборат бўлиб, халқаро компаниялар миллий компаниялардан фарқи шундаки, унинг товарлари оралиқ ёки тайёр ҳолда бир мамлакатдан иккинчи мамлакатга кўчиб юради.

Шу сабабли халқаро иқтисодий муносабатларда замонавий маркетинг тамойиллари ва усулларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Ташқи иқтисодий фаолиятда маркетингнинг чуқур кириб боришига XX аср ўрталарида жаҳон ишлаб чиқаришида рақобат муҳити кучайиши, мамлакатлар ва минтақалар ихтисослашувининг янада янги кўринишлари пайдо бўлиши, халқаро меҳнат тақсимоти, савдо-сотиқ муносабатлари жадаллашуви кучли туртки бўлди.

Ҳозирги кунда ташқи иқтисодий фаолиятда компанияларнинг халқаро маркетинг концепцияси товар ва хизматлар жаҳон бозорида силжитиш билан характерланиб, компаниянинг ташқи иқтисодий фаолиятдаги иштироки даражасига боғлиқ.

Мамлакатлар ва компанияларнинг ташқи иқтисодий фаолиятдаги иштироки куйидагича бўлиши мумкин:

- мамлакат ёки компания мунтазам товарларни экспорт қилмайди ва чет элдан товар ва хизматларни импорт қилади;

- мамлакат ёки компания халқаро меҳнат тақсимотида фаол иштироки натижасида хомашё ва замонавий технологиялар импорт ёки экспорт қилинади.

¹ Соболев В.Ю. Методологические основы формирования международного маркетинга. Дисс. ... докт. экон. наук. – М., 2000. - 274 с.

² Сейфуллаева М.Э. Концепция международного маркетинга, // Маркетинг в России и за рубежом, №1, 1998.

³ Berekoven Ludwig, "Internationales Marketing", Berlin, 1985., 89-pg

⁴ Dayan Armand, "Le marketing", "Presses Universitaires de France", 1986.105-pg

– мамлакат ёки компания қўшма ишлаб чиқариш шаклида халқаро саноат ва илмий-техник ҳамкорликларда иштирок этади.

Одатда мамлакат ва компанияларнинг халқаро меҳнат тақсимоотидаги фаоллигига зарурат сифатида қуйидаги сабаблар кўрсатилади:

– ишлаб чиқариш қувватларидан самарали ва тўла фойдаланиш ҳамда замонавий технологиялар, ноу-хауларни киритиш;

– товар ёки хизматлар экспортдан молиявий имкониятларни ошириш;

– мамлакат ёки компаниянинг жаҳондаги мавқеини оширишга интилиш;

– мамлакат ёки компанияни рақобатбардошлигини таъминлаш;

– хорижий валюта жалб қилиш имкониятини кенгайтириш.

Айниқса, компаниялар учун ташқи бозорга чиқиш сабабларини аниқлаш тезкор равишда маркетинг ишларини бошлашга асос бўлади. Бунда компания учун ташқи бозорга чиқиш имкониятлари билан бир қаторда маркетинг тадбирлари мажмуасини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Шундай қилиб, ташқи иқтисодий фаолият орқали молиявий манфаатга эришиш мақсадга эришиш ҳисобланади. Қайд этиш керакки, ташқи иқтисодий фаолиятда халқаро маркетингни амалга ошириш жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви таъсири асосида маркетинг тамойилларида ўзгаришлар бўлишини тавсифлайди. Худди шундай ўзгаришларни ташқи иқтисодий фаолиятда маркетинг босқичма-босқич ривожланишида маркетинг воситаларида кузатиш мумкин.

Замонавий ахборот технологиялари ва телекоммуникация воситаларининг ривожланиши жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви жараёнини янада жадаллаштириб юбормоқда ва ягона ахборот маконининг таркиб топиши натижасида глобал бозор вужудга келди. Шунингдек, фан-техника тараққиёти товар ва хизматлар таркибига жиддий таъсир ўтказиб, маркетинг услубларини тезкор равишда ўзгаришларга мослаштириш жиддий муаммога айланмоқда.

Мамлакатлар турли интеграцион бирлашмаларни шакллантириб, жаҳон бозор сегментларига мунтазам таъсир ўтказиб, товар ва хизматлар оқимини тинимсиз, айрим ҳолларда хаотик ўзгаришига сабаб бўлмоқда. Жаҳон бозорида сотувчи, харидор ёки савдо воситачилари ўртасидаги муносабатлар янги мазмун билан борган сари бойиб бориб, бозор сегментларидаги ўзаро муносабатлар халқаро маркетингни белгилаб берувчи муҳим хусусиятларидан бирига айланди.

Айнан халқаро маркетингнинг ушбу хусусиятлари мамлакатнинг ички бозори амалга оширилаётган маркетингдан ажратиб туради. Ваҳоланки, маркетингда ички ва ташқи бозорда бир хил тамойиллар асосланади. Шу билан бирга, ташқи бозор ва унинг шароитларининг ўзига хос хусусиятлари халқаро маркетинг тамойилларида алоҳида эътиборга олиш зарур жиҳатларни белгилайди.

1-жадвал. Ташқи иқтисодий фаолият соҳасида маркетинг ривожланишининг босқичлари таснифи

Босқичларнинг номланиши	Таснифи
Анъанавий экспорт	Товарни келгусида қўллаб-қувватламаган ҳолда сотиш. Экспортчи сотиб олувчи олдида товар харидигача бўлган давргача жавобгар, одатда, товарнинг кейинги тақдири билан қизиқмайди.
Экспорт маркетинги	Экспортчи мунтазам ташқи бозорни ўрганади ва бу орқали бозорнинг талабларига ишлаб чиқаришини мослаштиради. Бундай ҳолатда, экспортчи доимо бозорни тадқиқ этади ва товарнинг сўнгги истеъмолчигача бўлган йўлини назорат қилишга ҳаракат қилади.
Халқаро маркетинг	Экспортчи хорижий бозорларни чуқур ўрганади ва маркетинг воситалари, шунингдек, ташқи иқтисодий фаолиятнинг турли шаклларини бутун мажмуидан фойдаланади: илмий ва техник айирбошлаш, шартнома асосида ишлаб чиқариш, қўшма корхоналар, филиаллари ташкил этиш.
Глобал маркетинг	Маркетинг фаолияти чет элда нафақат савдо, балки бизнеснинг деярли барча функционал соҳаларини қамраб олади: таъминот, тадқиқот ва ривожлантириш, кадрлар, молия ва бошқалар. Бу чет мамлакат шароитида компанияни бозор тамойиллари асосида бошқариш. Халқаро менежмент трансмиллий корпорацияларга хос халқаро бошқарувдир.

Ташқи бозорга чиқиш билан боғлиқ қарор истеъмолчилар манфаатларига мос келиши билан бирга ташқи иқтисодий фаолиятнинг узоқ муддатли мақсадларини қониқтириши керак. Бундай боғлиқлик стратегик қарорлар (муаммолар диагностикаси, мақсадни шакллантириш, ресурсларни аниқлаш, кадрлар танлаш) ва ташкилий-иқтисодий (бўлинмалари, сервис ваколатхоналари, сўнгги маҳсулот) ўртасида бўлиб, компания маркетинг стратегияси муваффақиятининг асосий шarti ҳисобланади.

Мамлакат ёки компаниянинг ташқи бозор фаолиятида маркетингни ташкил қилишга бир қатор қарорлар ажратиб кўрсатилади:

- ташқи бозорга чиқиш имконияти ва мақсади;
- ташқи бозор устунликлари ва хатарлари;
- истеъмолчиларнинг мавжуд товарлар ва хизматларга ёки янги товар ва хизматларга талаблари;
- ташқи бозор хусусиятлари ва истеъмолчиларнинг шахсий жиҳатлари;
- ташқи бозорга чиқиш учун ҳамкорлар гуруҳини шакллантириш;

- ташқи бозорга чиқиш учун ишлаб чиқариш, товар ва хизматлар таркибини бозор эҳтиёжига мослаштириш;
- халқаро маркетинг концепциясини ишлаб чиқиш.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Автосаноат корхоналари учун халқаро маркетинг тизимини шакллантириш, глобал рақобатбардошликни таъминлаш ва янги бозорларни забт этишда муҳим стратегик қадам ҳисобланади. Ушбу мақолада халқаро маркетингнинг назарий ва амалий жиҳатлари, Ўзбекистон автосаноатининг ривожланиш истиқболлари ва экспорт салоҳиятини ошириш йўллари кўриб чиқилди.

Тадқиқотлар кўрсатадики, Ўзбекистон автосаноати халқаро бозорларда муваффақиятга эришиши учун маркетинг стратегиясини тўғри танлаш, маҳсулот сифатини ошириш ва бозор талабларига мос равишда инновациялар жорий этиш зарур. Ўзбекистонлик олимларнинг ишлари таҳлили шуни кўрсатадики, халқаро маркетингда муваффақият қозониш учун корхоналар рақобатбардошликни ошириш, самарали коммуникация стратегияларини қўллаш ва халқаро стандартларга мос маҳсулотлар ишлаб чиқаришга алоҳида эътибор қаратишлари лозим.

Мақолада қайд этилган тавсиялар, хусусан, рақобат устунликларини кучайтириш, экспорт стратегиясини такомиллаштириш ва халқаро савдо қоидаларидан самарали фойдаланиш Ўзбекистон автосаноат корхоналари учун муҳим аҳамият касб этади. Халқаро маркетинг тизимини ривожлантириш, маҳсулот брендини шакллантириш ва глобал бозор талаблари асосида маркетинг ёндашувларини такомиллаштириш орқали автосаноат корхоналари халқаро майдонда ўз позицияларини мустаҳкамлаши мумкин.

Умуман олганда, халқаро маркетинг тизими нафақат автосаноат корхоналарининг иқтисодий кўрсаткичларини яхшилаш, балки миллий иқтисодиётга ҳам ижобий таъсир кўрсатиши мумкин. Шу боис, автосаноат корхоналари халқаро маркетинг стратегияларини жорий қилиш ва ривожлантиришга жиддий эътибор қаратишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Казанцев А.К. Основы инновационного маркетинга. Теория и практика. Учебник для вузов. 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: Экономика, 2008. -356 с.

Абулқосимов Х.П. Корхонанинг халқаро маркетинг фаолияти. Монография. – Т.: Академия, 2002. - 114 б.

Акрамов Т.А. Корхоналар инновацион маркетинг стратегиясининг концептуал асосларини такомиллаштириш. Монография. – Т.: Молия, 2017. –141 б.

Саматов Г.А. и другие. Корпоративный менеджмент. – Т.: Консаудит Информ – нашр, 2006. – 231с.

Бабабекова Д.Ш., Турсунов Б.О. Миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини оширишнинг шарт-шароитлари ва асосий йўналишлари. Монография. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2018 й. -112 б.

Юлдашева О.У. Теория и методология формирования и развития маркетингового потенциала компании. //Под ред. д-ра экон. Наук, проф. Г.Л. Багиева. – СПб.: Изд-во Инфо-Да, 2005. –240 с.


Соболев В.Ю. Методологические основы формирования международного маркетинга. Дисс. ... докт. экон. наук. – М., 2000. - 274 с.

Сейфуллаева М.Э. Концепция международного маркетинга, // Маркетинг в России и за рубежом, №1, 1998.

Berekoven Ludwig, "Internationales Marketing", Berlin, 1985., 89-pg

Dayan Armand, "Le marketing", "Presses Universitaires de France", 1986.105-pg

1 NO
POVERTY





ISLOMIY SUG`URTALASH – TAKOFULNING MOHIYATI, AN`ANAVIY SUG`URLASH USULLARIDAN FARQLI JIHLARI

Muallif: Nosirova Fotima Fayzullo qizi ¹

Affilyatsiya: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Magistr ¹

E-mail: nosirovafotima38@gmail.com ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13892652>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda Islomiy moliya va uning ishlash qonun qoidalari haqida ma`lumotlar keltirilgan. Hozirda butun dunyo bo`ylab ushbu sohaning rivojlanganligi esa, uning mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligi rivoji uchun yo`naltirilishidagi ahamiyati ortib borayotganligini ko`rmoqdamiz.

Kalit so'zlar: Islomiy moliya, Islom banklari, aktivga va kapitalga asoslangan moliyalashtirish vositalari, takoful, an`anaviy sug`urtalash vositalari

KIRISH

Hozirda mavjud moliya bozorlarini islomiy moliya tamoyillari asosida tashkil etish islomiy banklarda emas, balki islomiy bo`lmagan banklarda ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Indoneziya, Malayziya, Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni va boshqa ko`plab mamlakatlarda barcha banklar va moliya tashkilotlari rioya qilishi kerak bo`lgan islomiy standartlar ishlab chiqildi. Islom moliyasining rivojlanish ko`rsatkichi (IFDI) ma`lumotlari asosida taqdim etilgan statistik ma`lumotlarga ko`ra 2021- yil islomiy moliya sanoatining jami aktivlari qiymati 4,0 trillion AQSh dollariga yetgan va bu miqdor o`tgan yilga nisbatan 17% ga ortgani ta`kidlandi. Hisobotga ko`ra, bu ko`rsatkich 2026 yilga borib 6 trillion dollargacha o`sishi kutilmoqda. 2021-yil holatiga ko`ra, 76 davlatda 566 ta islomiy bank, 50 ga yaqin davlatda 335 ta takaful (islomiy sug`urta) islomiy moliya institutlari faoliyat yuritmoqda.[1]

Musulmon mamlakatlarda islomiy moliya tamoyillari asosida yuritilayotgan islomiy banklar, islomiy investitsiya kompaniyalari va shuningdek islomiy fondlarning mablag`laridan mamlakatimizga investitsiya qilish orqali yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy farovinligini oshishiga imkon beradigan loyihalarni amalga oshirish uchun ulkan imkoniyat eshiklarini ochadi. Shu bois, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to`g`ri foydalanish, Islom Hamkorlik Tashkilotiga a`zo mamlakatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, investitsion, moliyaviy hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo`llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko`rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada

boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi " nutq so`zlari ham soha rivojining naqadar ahamiyatli ekanligini ifodalaydi.[2]

Mamlakatimizda ushbu sohaning rivojlanishi nafaqat aholi uchun balki, yurtimizning jahon maydonidagi o`z o`rnini egallashi uchun muhim ahamiyatga ega. Musulmon mamlakatlari bilan bir qatorda boshqa dunyo mamlakatlari bilan ham islom bank ishi, kapital bozori, moliya muassasalari, sug`urta tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari, islomiy fintech, halol sector bo`yicha tajribalar almashish, xizmat ko`rsatish sohalarida ham malakali kadrlarni tayyorlash mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o`shishiga o`zining ijobiy hissasini qo`shadi.

Islomiy moliya vositalaridan biri bo`lgan Takoful- sug`urtalash an`anaviy tijoriy sug`urtalashdan butkul farq qiladi. Dastlab islomiy moliya vositalari orasida ushbu vositaning qo`llanilishi va uning qonuniyatlari ishlab chiqilmagan bo`lsada, ammo bu tushuncha ilk islom davrlaridan shu paytgacha insonlarning turmush hayotlarida qo`llanilib kelingan. "O`zaro yordam va o`zaro hamkorlik" tushunchalari asosida insonlar bir birlariga moddiy va ma`naviy yordam berib kelishgan. Takoful so`zi arabcha "kafala" so`zidan kelib chiqqan va "bir biri to`g`risida o`zaro qayg`urish" ma`nosini beradi. Zamonaviy tizim sifatida esa 1979 yildan joriy etila boshlandi. Islomiy sug`urtalash tizimi Takofulda sug`urta qildiruvchi barcha ishtirokchilar umumiy farovonlik uchun bir maqsadda birlashadilar. Bunda har bir sug`urta qildiruvchi a`zo ehtiyojlandlarga beriladigan ko`makni zaruriy miqdorda omonat sifatida to`laydi. Bunda avvaldan tashkil etilgan hamjihatga muvofiq barcha majburiyatlar taqsimlanadi va yo`qotilishlar bo`lib olinadi. Ushbu tizimda ishtirok etayotgan hech bir a`zo boshqalarning hisobiga maanfaat olmasligi shart qilinadi. Sug`urtalashning bunday joriy etilishi arabchadan tarjima qilinganda "hadya", "xayriya" ta`limoti bo`lgan- "Tabarru"da yuzaga keladi. Har bir sug`urta qildiruvchi Takoful shartnomasida ishtirok etayotgan boshqa a`zolariga ular ma`lum bir xatarli vaziyatlarga duch kelganlarida samimiy yordam ko`rsatish niyatida harakat qilishlari talab etiladi.

Takoful shartli ravishda 2 ko`rinishda mavjud bo`lib ular quyidagilardir:

- 1) Umumiy takoful – tijoriy mulk sug`urtasi amalaiyoti kabi ishlaydi
- 2) Oilaviy takoful – shaxsiy sug`urta nomi bilan ishlaydigan ammo o`ziga xos farqli jihatlar asosida amalga oshiriladigan

Umumiy takoful – mulkni sug`urtalash bo`lib, bunda har bir sug`urta qildiruvchi to`langan mablag`lar hisobidan sug`urtalovchining xarajatlari chiqarib tashlanganidan keyin, qolgan foydaga da`vogarlik qiladi. Bunda omonat - mexanizmi qo`llaniladi. Omonat mexanizmiga ko`ra – mulk egasi sug`urta mukofotini amalga oshirgach, kompaniyaning hissadorlaridan biriga aylanadi natijada har yilning yakunida foydaning bir qismini qo`lga kiritadi. Agar shartnoma amal qilish davrida sug`urta hodisasi yuz bermasa, kompaniya kapitalida uning sug`urta qildiruvchining polis muddati uzaytirish orqai davom ettiriladi. [3]

Oilaviy takoful – jamg`armalar tizimini ifodalab, yuzaga kelishi mumkun bo`ladigan turli xavf – xatarlardan sug`urta qilingan shaxsning oila a`zolari himoya qilish maqsadlariga ega bo`lishadi. Ishtirokchilarning doimiy badallari esa, takoful jamg`armasining ikkita hisob varag`iga yo`naltiriladi. Birinchisi kiritilgan mablag`lardan kelgan investitsion daromadlarni olish huquqiga ega ishtirokchi hisob

raqami va ikkinchisi – sug`urta polisi yakuniga qadar yashayotgan ishtirokchining o`ziga yoki uning merosxo`rlariga to`lab beriladigan maxsus hisob varaq. [4]

Islomiy sug`urtalashning an`anaviy sug`urtalash tizimidan farqli tomonini quyidagilarda ko`ramiz.

1. Takoful ishtirokchilari bir vaqtning o`zida ham sug`urta qildiruvchi, ham bir – birlarini o`zaro sug`urtalovchilar bo`ladi. Sug`urta kompaniyasi esa ishtirokchilarning manfaatini ko`zlab agent sifatida faoliyat yuritadi

2. Ishtirokchilarning kiritgan mablag`laridan kelgan barcha foyda an`anaviy sug`urtalashdagi kabi sug`urta kompaniyasining mulki hisoblanmaydi. Sug`urta operatori – muzoribning xizmat haqqi chiqarilib yuborilganidan keyin qolgan mablag` ishtirokchilar o`rtasida taqsimlanadi.

3. Takofulda faqat islom dini shiati doirasidagi sof xatardan sug`urtalashni amalga oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islomiy sug`urtalash konsepsiyasi – Takofulda har bir ishtirokchining kiritadigan sug`urta mukofoti (badali)ning ma`lum bir qismi asosiy maqsad hadya sifatida yoki ehtiyoriy xayriya mablag`i sifatida ko`rib chiqiladi va jamg`armaga yo`naltiriladi. Sug`urta hodisasi yuz bergan vaziyatlarda esa, jamg`armada to`lab beriladi. Ayni shu vaziyatda ortiqcha g`orar(noaniqlik) tushunchasi bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ICD-REFINITIV, Islamic Finance Development Report 2022, https://icd-ps.org/uploads/files/ICD%20Refinitiv%20ifdi-report-20221669878247_1582.pdf

Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43- sessiyasi ochilish marosimida ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev nutqning to'liq matni. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-vazifasini-bazharuvchi-sha-18-10-2016>

Baydaulet Ye. A. Islomiy moliya asoslari.– T.: O'zbekiston, 2019. – B.78.

Baydaulet Ye. A. Islomiy moliya asoslari.– T.: O'zbekiston, 2019. – B.80.



ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTI MUSHORAKANING IQTISODIY AMALIYOTLARGA TATBIQI

Muallif: Nosirova Fotima Fayzullo qizi ¹

Affilyatsiya: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Magistr ¹

E-mail: nosirovafotima38@gmail.com ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13892751>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda Islom banklari va nobank moliya tashkilotlari tomonidan qo`llanilib kelinayotgan islomiy moliya instrumentlaridan biri bo`lgan mushoraka amaliyoti mohiyati va uning ishlash tartibi haqida qisqacha ilmiy asos va xulosa keltirilgan. Bugungi kunda Islomiy moliya sohasi jadal sur`atlarda rivojlanyotganligi sababli islomiy moliya va islomiy banklar, xalqaro islomiy investitsiya fondlari mablag`larini mamlakatimiz iqtisodi rivoji uchun yo`naltirilishi albatta mamlakat va uning fuqarolari uchun ulkan imkoniyatlar beradi.

Kalit so'zlar: Islomiy moliya, Islom banklari, mushoraka, mushoraka bitimining ishlash tartibi, mushoraka shartnomasida foyda va zarar tushunchalari

KIRISH

Ma`lumki Islomiy moliya sanoatining rivojlanish bosqichlari 1970 – yillardan boshlanganidan bugunga qadar uning jahon moliyaviy aktivlar qiymatidagi ulushu ortib bormoqda. 1975 – yilda Islom Taraqqiyot Banki ta`sis etilishi islomiy moliya sohasining nafaqat musulmon mamlakatlarida balki, musulmon bo`lmagan mamlakatlarda ham rivojlanishiga ulkan hissa qo`shdi. Islomiy moliyalashtirishning asosi voqelikdagi real aktivlarga asoslanganidadir. Bunda pullar ortiqcha qiymat yaratishga asos sifatida emas, balki u almashinuv vositasi sifatida, tovar va xizmatlarning puldagi ekvevalentidir. [1]

Islomiy moliya sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar islomiy banklar tizimida ishlatiladigan 5 turdagi islomiy moliya vositalarini ta`kidlaydilar. Bular: foyda va zararni taqsimlashdagi islomiy moliyaviy instrumentlar, oldi – sotdi jarayonida ishlatiladigan vositalar, yig`im va komessiyalarni qo`llashda foydalaniladigan, bepul xizmatlarni ko`rsatishga asoslangan vositalar va so`ngisi yordam xizmatlarini ko`rsatishda qo`llaniladigan moliyaviy vositalar shular jumlasidandir. Shuningdek, islomiy moliya sanoatida savdo – sotiq amaliyotlarida qo`llaniladigan murobaha, musovama, istisno`, salam va tavarruq kabi moliyaviy vositalar foydalaniladi. Ijara munosabatlarida qo`llaniladigan ijara bitimlari, foyda va zararlarni taqsimlanishidagi muzoraba va mushoraka moliyaviy vositalar.

Shirkat atamasi islomiy moliya sohasida foydalanilayotgan moliyaviy instrumentlardan biri bo`lgan mushoraka amaliyotidan kengroq va batafsil ma`noga egadir. Ayni shirkat atamasining bir qismi sifatida mushoraka amaliyoti islomiy banklar

va islomiy moliya muassasalarida qo`llanilib kelinmoqda. Mushorka islomiy moliya sanoatida “shirkatul amvol”, “shirkatul a`mol” ni qo`llash ayni maqsad qilib olinadi.

Mushoraka – shirkatul amvol bu ishtirokchi tomonlarning o`zaro kelishuvlari asosida yuzaga kelgan bitim hisoblanadi. Mushoraka bitimining joriy etilishi uchun qatnashuvchi tomonlar shartnomada ishtirok etishga layoqatli bo`lishlari va shartnomaning har bir bandiga ishtirokchilarning roziliklari asosida hech qanday majburlash holatlarisiz, g`orar (noaniqlik)dan holi, aldovlarsiz amalga oshirilishi lozim. Shartnomaga ko`ra ikki va undan ortiq shaxslar o`zlaridagi mablag`larini umumiy loyihaga tikadilar va ulushli ishtirok asosida kompaniya tashkil etadilar. Foydani taqsimlash to`g`risidagi bitim shartnoma ishga tushushidan avval shartnomada keltirilgan bo`lishi lozim. Bunday talabning joriy qilinishida islom fiqhi qoidalar asos bo`ladi. Ishtirokchilar orasida olingan foydani taqsimlash mehanizmi har bir ulushli ishtirokchilar tomonidan o`zaro shartnimada keltiriladi, bunda foydadagi ulush miqdori kiritilgan sarmoyadagi ulushdan farq qilishi mumkin. Shuningdek zarar yuzaga keladigan vaziyatarda tomonlar kiritgan kapitalga mutanosib tarzda zararlar taqsimlanadi, ya`ni qo`shma korxonalar muvaffaqiyatsizlikka uchragan holatlarda o`zi kiritgan kapital miqdoricha yo`qotish xatariga ham duchor bo`ladi. Tuzilayotgan sherikchilik shartnomasida har bir kapital kiritgan ishtirokchi loyiha boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega, mavjud barcha axborotdan xabardor bo`lish orqali yuzaga kelishi mumkin bo`lgan xatarlarni oldi olinishiga o`z hissasini qo`shadi. Loyihani moliyalashtirish jarayonida barcha ishtirokchilar sarmoya kiritadi, uning boshqarish jarayonida yoki hamma ishtirokchilar, yoki bitta ishtirokchi bu mas`uliyatni o`z zimmasiga oladi. Loyihani boshqarishdan voz kechgan sarmoyadorlar “sokin sheriklar” deb ataladi. Bunday vaziyatlarda loyihani boshqarishda bevosita qatnashish o`rniga, olingan foydaning katta ulushi shaklidagi mukofotni olish maqomidagi “ishchi sheriklar” dan farqli o`laroq o`zlari kiritgan investitsiya miqdoridan ortiq miqdordagi foyda miqdoriga talabgor bo`lolmaydi. Loyihani tashkil etgan sarmoyadorlar xohlasa ish boshqarilishi uchun menejer yollashi va unga ishni boshqarish mas`uliyatini zimmasiga yuklab unga haq to`lashadi, ammo menejer foydadan ulushga ega maqomda bo`lmaydi.


Mushoraka shartnomasi muddatli mushoraka va muddatsiz mushoraka turlari bilan farqlanadi. Muddatsiz shartnoma istalgan vaqtda qolgan barcha sheriklarini xabardor qilish sharti ila sheriklikning har bir ishtirokchisi tomonidan bekor qilinishi mumkin. Ishtirokchilardan birortasining loyihani tark etish vaziyatlarida qolgan ishtirokchilar orasida sherikchilik saqlanib qoladi. Sherikchilikni tark etgan sherikning ulushini qolgan sheriklar sotib olishi va shartnomani davom ettirishlari mumkin.[2]

Mushoraka shartnomalari korxonaning aylanma mablag`larini to`ldirish uchun, yoki qo`shma investitsion faoliyatga maslan, ko`chmas mulkga, qishloq xo`jaligiga qo`yilmalar kiritish uchun yo`naltirilishi mumkin. Bu kabi shartnomalar uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun eng ko`p qo`llaniladi. Bunday moliyaviy instrumentning afzalligi uning egiluvchan (moslashuvchan) ligidadir. Bunda foydani taqsimlashdagi hissa, boshqaruvdagi ishtirok etish kabi sherikchilik xususiyatlari qatnashuvchilar tomonidan avvaldan kelishiladi. Mushoraka shartnomasi odatda bank tomonidan investitsion loyihalarga portfel investitsiyalarni kiritish uchun ishtirok etadi.[3]

Bank amaliyotida mushorakaning “kamayib boruvchi” usulidan keng foydalaniladi. Bunda ma`lum bir aktiv (ko`chmas mulk yoki investitsion loyiha obyekt) ga bo`lgan egalik hissasini asta sekin ma`lum bir davrda moliyalashtiruvchi tomon (islomiy bank) dan yakuniy egasi (mijoz) ga batamom o`tishini ifodalaydi. Bunda asosiy talab aktivning ma`lum bir qismi moliyalashtiruvchi tomonning Mulki bo`lib turgan muddatda aktivning kelajakdagi egasi bo`lishi kutilayotgan mijozga aktivga birgalikda egalik qiluvchi, ya`ni moliyalashtiruvchi tomonidan ma`lum bir davrda foydalanganligi uchun ijara to`lovini (investitsion loyihadan keladigan daromadning bir qismini) to`lab berilishi shart.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Baydaulet Ye. A. Islomiy moliya asoslari.– T.: O'zbekiston, 2019. – B.27.
Uusmani M. T., Taqī 'Uṣ_mānī M. An introduction to Islamic finance. – Michigan.: Brill, 2002. – P. 23
Baydaulet Ye. A. Islomiy moliya asoslari.– T.: O'zbekiston, 2019. – B.47.
Baydaulet Ye. A. Islomiy moliya asoslari.– T.: O'zbekiston, 2019. – B.49.





THE ROLE OF VISA POLICIES FOR STUDENT TOURISM DEVELOPMENT: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Author: Akhrorova Nilufar Uktamovna

Affiliation: "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage, PhD student

E-mail: akhrorovanilufar777@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13922523>

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3955-1371>

ANNOTATION

As the demand for international education and student tourism continues to rise, countries must recognize the importance of progressive visa policies in attracting global talents and achieving high economic growth. This article highlights the importance of visa policy, opportunities and challenges related to this process and presents to advance its regulations in student tourism and mobility.

Keywords: student tourism, international education, visa policies, student mobility

INTRODUCTION

As the world becomes more interconnected, educational institutions and countries recognize the economic and cultural advantages of attracting international students due to globalization. Visa policies are important in influencing the flow of students who want to study abroad. However, these policies can also create significant barriers which impact accessibility and inclusion. It is essential for stakeholders in the education and tourism industries to comprehend visa regulations to capitalize on student tourism while addressing challenges associated with restrictive or complex visa processes. This study emphasizes the importance of balancing international education and addressing immigration issues in order to shape the development of student tourism. To attract international students, nations must streamline visa protocols and adopt inclusive policies that facilitate the academic success of individuals from varied backgrounds. Collaborative efforts among governmental entities, educational institutions, and tourism boards are essential for formulating a unified strategy that streamlines entry protocols while enhancing cultural exchange and understanding among international students, ultimately facilitating a more seamless transition experience. Leveraging technology for real-time support empowers students in new environments. Mentoring programs connecting foreign students with local peers foster belonging and cultural connection. Such initiatives benefit both students and the local community, enhancing shared experiences and relationships. These connections promote cultural exchange, enabling mutual learning and broadening perspectives.

LITERATURE REVIEW

Numerous studies have highlighted the economic benefits of attracting international students. Mazzarol and Soutar (2002) assert that international students substantially bolster local economies through various expenditures [1]. This economic influence underscores the necessity for a visa policy that enhances student mobility. Conversely, stringent visa regulations pose significant obstacles, as Beine et al. (2014) indicate that complex visa procedures can diminish enrollment in host nations [2]. The cultural effects of student tourism are considerable. International students contribute to the cultural richness of host communities. Research by Perkins and Neumayer (2014) highlights the role of cultural engagement in fostering understanding and cooperation among diverse student populations [3]. This cultural dimension emphasizes the need for a visa policy that facilitates access and promotes inclusivity, thereby enhancing the academic and social development of a heterogeneous student community.

According to Bodycott (2009), collaboration between governments, educational institutions and tourism boards can lead to integrated strategies [4] that simplify visa processes while encouraging cultural exchange. Such collaborative initiatives may include mentoring programs that connect international students with their local peers, fostering a sense of belonging and community. These programs, suggested by Lee and others (2017), enhance the overall experience for international students [5], making their transition smoother and richer.

Furthermore, the incorporation of technological advancements into the visa application procedure has been advocated as a means to empower students. Real-time informational resources and support mechanisms can significantly aid international students in acclimating to their new surroundings [6], as emphasized by Chen and Zimitat (2006). This technological strategy not only improves accessibility but also enriches the holistic experience of international students, thereby enabling them to engage more profoundly with the host culture [7].

Briefly, the existing literature emphasizes the balance between promoting international education through efficient visa policies and mitigating the obstacles presented by stringent immigration regulations.

METHODOLOGY

This study employs a mixed-methods approach to investigate the role of visa policy in the development of student tourism.

Literature Review: A comprehensive analysis of existing literature will be performed to create a theoretical framework and pinpoint research deficiencies. This will encompass a review of scholarly articles, governmental documents, and case studies pertinent to visa regulations, student mobility, and cultural interactions. Significant themes and conclusions from earlier research will be integrated to shape the research inquiries.

Data Collection: Empirical data will be sourced from official platforms related to international student enrollment statistics and visa application trends. This information will facilitate the examination of modifications in visa policies and patterns of student mobility.

The study recognizes possible constraints, including the inconsistency of visa regulations among nations and the difficulties in acquiring thorough data.

Applying a mixed methods methodology, the investigation intends to clarify the role of visa policies in shaping student tourism and to contribute to the establishment of better strategies that can enhance the experience of international students.

RESULTS and ANALYSIS

The current state of visa policies for students globally is characterized by a mix of accessibility and challenges, influenced by *geopolitical dynamics, economic conditions, and cultural factors*.

Nowadays, we can see the unprecedented growth in International Student Mobility, according to UNESCO, the number of international students worldwide reached approximately 6 million in 2020, and this figure is expected to grow. Countries like the United States, Canada, Australia, and the United Kingdom remain to be top destinations, attracting students with favorable visa policies and quality education [8].

A study by the Institute of International Education (IIE) found that countries with streamlined visa processes saw higher enrollment rates. For example, Australia experienced a 14% increase in international student enrollment from 2019 to 2020, attributed to its favorable visa policies [9].

International students contribute significantly to host countries' economies. In the U.S., the National Association of Foreign Student Advisers (NAFSA) reported that international students contributed over \$38 billion to the economy in the 2020-2021 academic year, underscoring the importance of accessible visa policies. As universities continue to adapt, there is a growing emphasis on enhancing support services for international students[12], ensuring they have access to resources that facilitate their academic and social integration.

Institutions that offer robust financial aid packages tend to attract a more diverse student body, as evidenced by research indicating that universities with substantial scholarships for international students reported a 20% increase in applications over a three-year period [10].

There are diverse visa regulations. Countries have implemented a variety of visa regulations that can significantly impact students' choices, with some nations offering streamlined processes while others impose stringent requirements that may deter applicants.

Visa policies vary significantly across countries. For instance:

- **United States:** The F-1 visa allows students to stay in the U.S. for the duration of their studies, with options for Optional Practical Training (OPT) that can extend their stay for work experience [11].

- **Canada:** The Student Direct Stream (SDS) offers expedited processing for students from specific countries, reflecting a more welcoming approach. The study permit allows international students to work on or off-campus while studying, and graduates may apply for a Post-Graduation Work Permit (PGWP) to gain valuable work experience in the country [13].

- **United Kingdom:** The Tier 4 (General) student visa permits students to study in the UK and allows limited work hours during term time, with post-study options

available for graduates under the Graduate Route, enabling them to stay for up to two years to seek employment [14].

- **Australia:** The Subclass 500 student visa allows international students to study full-time and work up to 40 hours per fortnight during the semester, with opportunities for post-study work through the Temporary Graduate visa, which can last from 18 months to four years depending on qualifications [11].

From another point, despite the popularity of student tourism due to visa facilitation and increased international student mobility, students face many obstacles:

- *bureaucratic delays:* lengthy processing times and complex documentation requirements can deter potential applicants;

- *economic barriers:* high tuition fees and living costs can limit access, particularly for students from developing countries;

- *policy changes and uncertainty:* changes in visa policies can create uncertainty and affect the attractiveness of a country as a study destination. For example, changes in Australia's migration policy have impacted the expectations of students in the Vocational Education and Training (VET) sector, who anticipated pathways to permanent residency [15];

- *barriers to mobility:* stringent visa requirements can act as barriers to student mobility. In the U.S., post-9/11 federal legislation has created challenges for international students, affecting their ability to study and work in the country [16];

- *integration and cultural challenges:* international students often face cultural and social integration challenges in host countries. In the U.S., international students may experience cultural shock and isolation, which can hinder their participation in the local community and limit cultural exchange [18, 21]. In Australia, international students [17] may face frustrations due to cultural misunderstandings and differing expectations.

Table 1. Challenges and opportunities related visa policy for student tourism

VISA POLICY FOR STUDENT TOURISM	
Challenges	Opportunities
<i>bureaucratic delays</i>	<i>economic benefits</i>
<i>economic barriers</i>	<i>cultural exchange and diversity</i>
<i>policy changes and uncertainty</i>	<i>educational opportunities</i>
<i>barriers to mobility</i>	
<i>integration and cultural challenges</i>	


Source: formed by author.

There are so many opportunities which include increased cultural exchange, economic benefits for host countries, and the potential for long-term international relationships. Table 1 presents both challenges and opportunities related visa policy for student tourism and mobility that many tourist destinations can face. By simplifying visa processes, countries can attract a diverse range of students, enriching their educational environments and fostering global understanding. However, challenges such as stringent visa requirements, lengthy application processes, and political factors can deter potential students, limiting their access to educational opportunities abroad:

- *economic benefits*: International students contribute significantly to the economies of host countries. For instance, in the United States, international students and their dependents contributed approximately \$20 billion to the economy, highlighting the financial incentives for countries to attract foreign students [18]. Similarly, Australia views international students as an “export commodity”, contributing to the national economy [17];

- *cultural exchange and diversity*: Visa policies that facilitate student mobility can enhance cultural diversity and intercultural proficiency on campuses. This diversity enriches the educational experience for both international and domestic students, fostering a global perspective and understanding [19];

- *educational opportunities*: countries like the United States and Australia offer high-quality education and research opportunities, which are attractive to international students. These opportunities are often supported by visa policies that allow students to study and sometimes work in the host country [13].



Picture 1. Steps for the enhancement of visa regulations for student tourism

Source: formed by author.

While visa policies are pivotal in shaping student tourism, they are not the sole factor influencing international student mobility. Other elements, such as the quality of education, cultural appeal, and economic conditions, also play significant roles.

Moreover, the impact of visa policies can vary depending on the political and economic context of both the host and home countries. For instance, while some countries may use visa policies to attract students [21], others may implement restrictions to control the flow of international students. Therefore, a comprehensive approach that considers these various factors is essential for effectively leveraging visa policies to enhance student tourism. By implementing these steps described in Picture 1, countries can create a more favorable environment for student tourism, enhancing both the educational experiences of international students and the economic and cultural benefits for host countries.

DISCUSSION

The study highlights the significant impact of visa policy on student tourism. As globalization advances, the relationship between visa regulations and international student mobility gains importance. This analysis will address the research implications, examining current visa policy opportunities and challenges, and proposing enhancements for the international student experience.

The economic implications of international student mobility are profound. Evidence indicates that international students contribute approximately \$30,000 annually to local economies via tuition, housing, and living costs. This financial impact emphasizes the necessity for host countries to adopt robust visa policies to optimize such advantages. With the growing importance of international students to the economy, governments must recognize the financial benefits of attracting this group.

Through variety and cross-cultural interaction, foreign students enrich host communities on a cultural level. The qualitative results highlight the importance of mentorship programs and cultural integration initiatives in improving the student experience. This dimension of student mobility is vital, benefiting both students and enriching local communities through shared experiences.

Nonetheless, the study identifies ongoing challenges that warrant attention. Complicated visa regulations remain obstacles, particularly for students from certain regions, and prolonged processing times may dissuade prospective applicants. Furthermore, inconsistent visa policies across nations create confusion and uncertainty, complicating students' decision-making processes.

It is crucial to acknowledge that visa policies, while essential, are not the sole determinants of international student mobility. The quality of education, cultural appeal, and economic conditions also significantly influence this mobility. Hence, a holistic approach considering these factors is vital for effectively utilizing visa policies to enhance student mobility.

CONCLUSION

In summary, visa policies play a pivotal role in shaping student mobility, offering substantial opportunities and notable challenges. Favorable visa regulations can boost economic contributions from international students, enhance cultural exchange, and facilitate access to quality education. Conversely, restrictive visa processes may pose barriers that deter potential students, create uncertainty, and hinder integration into

host communities. As globalization transforms international education, policymakers and stakeholders must adeptly manage the complexities of visa regulations.

Based on the findings, we would like to give specific recommendations for implementing streamlined visa processes:

- Digital platforms should be utilized to assist students in navigating visa applications, thereby minimizing bureaucratic delays and enhancing accessibility.

- Promoting collaboration among governments, educational institutions, and tourism boards is essential for devising cohesive strategies that simplify entry requirements and foster cultural exchange. Such partnerships can yield innovative programs that enrich the international student experience.

REFERENCES

Mazzarol, Tim & Soutar, Geoffrey. (2002). The Push-Pull Factors Influencing International Student Selection of Education Destination. *International Journal of Educational Management*. 16. 82-90.

Beine, M., Noël, R., & Ragot, L. (2014). Determinants of the international mobility of students. *Economics of Education review*, 41, 40-54. <https://doi.org/10.1016/j.econedurev.2014.03.003>

Perkins, Richard & Neumayer, Eric. (2013). Geographies of Educational Mobilities: Exploring the Uneven Flows of International Students. *Geographical Journal*. 180. 10.2139/ssrn.1857523.

Bodycott, P. (2009). Choosing a higher education study abroad destination: What mainland Chinese parents and students rate as important. *Journal of research in International education*, 8(3), 349-373.

Gunn, F., Lee, S. H., & Steed, M. (2017). Student perceptions of benefits and challenges of peer mentoring programs: Divergent perspectives from mentors and mentees. *Marketing Education Review*, 27(1), 15-26.

[Chen, C.](#) and [Zimitat, C.](#) (2006), "Understanding Taiwanese students' decision-making factors regarding Australian international higher education", *International Journal of Educational Management*, Vol. 20 No. 2, pp. 91-100. <https://doi.org/10.1108/09513540610646082>

Akhrorova, N. U., & Axmadova, Z. A. (2023). THE ROLE OF YOUTH TRAVEL ORGANIZATIONS IN IMPROVING THE NATIONAL ECONOMY. In *СОВРЕМЕННЫЕ ВОПРОСЫ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ И ЭКОНОМИКИ* (pp. 61-64).

Dennis, M. J. (2023). International Student Mobility in 2023. *Enrollment Management Report*. <https://doi.org/10.1002/emt.31036>

Wiescher, M. (2021). *The Institute of International Education (IIE)*. https://doi.org/10.1007/978-3-030-80606-4_13

"Scholarships for International Students as a Way to Ensure the Right to Education (Including Case Studies)," 2023

Gopal, A. (2016). *Visa and Immigration Trends: A Comparative Examination of International Student Mobility in Canada, Australia, the United Kingdom, and the United States*. <https://doi.org/10.1002/SEM3.20091>

Uktamovna, A. N. (2024). DEVELOPING STUDENT TOURISM: STRATEGIES FOR DESTINATION MARKETING. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(1), 195-199.

Pilote, A. (2013). *Student Mobility and the Canadian Francophonie*. https://doi.org/10.1007/978-94-6091-906-0_16

McCormick, K., Bowen, C., Tong, J. W. K., & Potter, M. J. (2010). The international mobility of UK students; a government funded initiative. *Journal of Foot and Ankle Research*. <https://doi.org/10.1186/1757-1146-3-S1-O16>

Birrell, B., & Perry, B. (2009). Immigration policy change and the international student industry. *People and Place*. <https://doi.org/10.4225/03/590AB5987B464>

Urias, D., & Yeakey, C. C. (2009). Analysis of the U.S. Student Visa System Misperceptions, Barriers, and Consequences. *Journal of Studies in International Education*. <https://doi.org/10.1177/1028315307308135>

Renner, J. (2004). *EDU-COM 2004 International conference: new challenges for sustainability and growth in higher education*.

Kusek, W. A. (2015). Evaluating the Struggles with International Students and Local Community Participation. *Journal of International Students*. <https://doi.org/10.32674/JIS.V5I2.429>

Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.

Uktamovna, A. N. (2023). THE FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE ON TOURISM AND YOUTH POLICY. *Journal of new century innovations*, 31(1), 125-131.

Axrorova, N. (2023). TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA XALQARO KREDIT MOBILIGINING ROLI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 33(33).





IJTIMOY YO'NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI MODELLARI VA BIZNES YURITISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS MEZONLARI

Muallif: Sultonov Bobomurod Tursinboyevich ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti¹, Doktorant ¹

E-mail: murodsultanov084@gmail.com¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13923601>

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzu doirasida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modellari va ularning biznes yuritish faoliyatidagi o'ziga xos mezonlari ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli bozor va davlat aralashmasiga asoslangan bo'lib, asosiy maqsadi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga bozor tamoyillarini saqlashdir. Ushbu modelda davlat bozor mexanizmlarini nazorat qilish bilan birga, ijtimoiy tenglik, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik kabi sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Biznes yuritish faoliyatining o'ziga xos mezonlari sifatida korporativ ijtimoiy mas'uliyat, ekologik barqarorlik, aholi farovonligiga yo'naltirilgan strategiyalar va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik kabilar ajralib turadi. Ushbu mezonlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesning nafaqat iqtisodiy foyda olishga intilishiga, balki keng jamoatchilik manfaatlarini hisobga olishiga urg'u beradi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, biznes yuritish faoliyati, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, davlat tartibga soluvi, ekologik barqarorlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik, aholi farovonligi, bozor tamoyillari, davlat va bozor hamkorligi

KIRISH

Hozirgi davrda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qator modellari mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan farqlanadi. Albatta, bu farqlar biznes yuritish faoliyati bilan bog'liq.

1. **Amerikacha yoki liberal model** (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya). uning asosini davlat mulki salmog'ining kichikligi va bozor sub'yektlarining to'la erkinligi sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi amal etishi tashkil qiladi. Bu modelda yalpi milliy maxsulot hajmida davlat harajatlarining ulushi nisbatan katta emas. Masalan, AQSHda bu taxminan 30,0 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatining yuqoriligi va keskin raqobat qo'shimcha qiymat miqdorini sezilarli darajada oshiradi.

2. **Yapon modeli.** Ushbu model Yaponiya tarixiy an'analri - millat manfaatlarining shaxsiy manfaatlaridan ustunligi, xodimlarning intizomligi va mas'uliyati, yangilikka intilishiga asoslangan. Bu xislatlar mahsulotlar tanarxini arzonlashtirish, yuqori sifatligini ta'minlash hisobiga ularning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuningdek, yapon modeli uchun milliy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga davlat ta'sirining yuqori darajasi, 5 yillik istiqbol rejalarini belgilash ham xos. Ijtimoiy sohada esa

davlat ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash olib boradi, fuqarolar kasal bo'lganlarida, ishsiz qolganlarida va pensiyaga chiqqanlarida ularning ijtimoiy huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilad. Xodimlarning ijtimoiy muammolarini hal etish ish beruvchilar zimmasida bo'ladi.

3. **Nemis yoki qit'a modeli** (Germaniya, Avstriya, Shveysariya, qisman Fransiya). Bu model quyidagi xususiyatlarga ega:

- * davlat mulki salmog'ining yuqoriligi;
- * davlatning iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi, bu ayniqsa, ijtimoiy muammolarni hal etishda yaqqol namoyon bo'ladi;
- * xodimlar ish haqi o'rtasidagi tafovutning katta emasligi;
- * banklarning iqtisodiyotdagi hal qiluvchi roli, Markaziy bankka to'la muxtoriyat berilganligi.

4. **Shved yoki Skandinavi modeli** (Shvesiya, Daniya, Norvegiya va Finlyandiya). iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, mulkiy tengsizlikni kamaytirishga intilish, aholining kam ta'minlangan toifalari to'g'risida g'amxo'rlik qilish ushbu modelning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Soliqqa tortish me'yoring yuqoriligi davlatga salmoqli moliyaviy resurslarga ega bo'lish va ularni ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish imkonini beradi. Shu tufayli bu davlatlarda ishsizlik darajasi juda past, aholi daromadlari bir-biridan jiddiy farq qilmaydi.

Avvalo biznes (ing. Busines - ish, mashg'ulot) - daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati; tijorat; ishbilarmonlik. Biznes, xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab, yirik, o'rta va kichik turlarga bo'linadi[1].

"**Biznes**" - so'zi inglizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so'z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik sohasida biznes foyda beradigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar biznesmen sifatida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning ko'payishiga, aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tadbirkorga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Tadbirkor - o'zida ma'lum bir miqdorda moliyaviy mablag'ni tavakkal qilgan holda bozorga yangi g'oya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxsdir.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin. U ishbilarmonlikdan kelib chiqqan munosabat bo'lib, biron bir unumli ish, faoliyat bilan bog'liqlikni anglatadi[1]. Biznes bilan bog'liq shaxs biznesmen deyiladi. Biznes - bu so'z inglizchadan olingan, biznes - ish, men - odam degan ma'noni anglatadi. Biznes - tadbirkorlik, iqtisodiy kategoriya bo'lib, xo'jalik yuritish usuli, iqtisodiy fikrlash turidir. Avvalo, biznesni - tadbirkorlikning iqtisodiy ob'yekt va sub'yektlardan boshlanishini o'rganish kerak. Tadbirkorlik yakka, guruh va jamoa holda yuz berishi mumkin, faoliyatlari biznes mazmuniga mos bo'lishi kerak. Umuman, biznes bilan shug'ullanadiganlarni olsak, bu davlat, jamoa va xususiy korxonalar, tashkilotlardir. Biznesmen (tadbirkor) so'zi birinchi marta Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u "mulk-egasi" degan ma'noni bildiradi[2].

Haqiqiy biznes hisob-kitoblar va ish haqi kabi narsalar bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Haqiqiy biznes mavjudligining birinchi kunidanoq foyda haqida o'ylaydi. Haqiqiy biznes: "Hammasi yaxshi, biz axir startapmiz", - began bahona ortiga jiddiy muammolarni yashirmaydi. O'zingizni haqiqiy biznesmen kabi tuting, shunda muvaffaqiyatga erishishingiz uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lasiz[3].

Tadqiqotchi F.Odilov ijtimoiy sohani moliyalashtirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratishni tavsiya etadi[4].

Birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy soha xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish, ijtimoiy sohani har bir tarmog'i bo'yicha dastlabki, joriy va so'nggi (navbatdagi) nazoratlarni davriy almashtirish ishlarini olib borish lozim.

Ikkinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy soha xarajatlarini samarali boshqarish, byudjet tashkilotlarini byudjetdan oladigan mablag'lari ulushini kamaytirish maqsadida, byudjet tashkilotlarining faoliyat turidan kelib chiqib, byudjetdan tashqari mablag'lari turmushining nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladigan va tartibga soladigan qonuniy-huquqiy ishlab chiqish lozim[5].

Ijtimoiy soha - jamiyat rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sohalardan biridir. Mazkur soha nafaqat alohida guruhlar, barcha kishilar, balki, jamiyat manfaatlarini ifoda etadi[6]. "Kishilarning har kungi turmush tarzi, hatto ularning taqdiri ham mazkur sohaga bog'liq"[7].

"Ijtimoiy soha tizimi - bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan va odamlarning turmush darajasi, farovonligi va ehtiyojlarini belgilovchi tarmoqlar, muassasalar, tashkilotlar majmuasidir"[8]. "Tizim" deganda funksional vujudga keluvchi, ma'lum vazifalarni bajarish uchun o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning tartibga keltirilgan majmui tushuniladi [9]. Tizim shunday tashkil qilinishi kerakki, u o'zining o'zgaruvchan muhitda barqarorligini va rivojlanishi hamda aniqlangan maqsadga erishilishini ta'minlashi kerak.

Davlatimiz rahbari 2021 yildan buyon har yili avgust oyida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, biznes vakillarida yechimini kutayotgan, yig'ilib qolgan muammolarni tinglab boradi. Shu asosda tadbirkorlik faoliyatini kengaytrish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, sohani rivojlantirishga to'siq bo'layotdan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi [10].

"Tadbirkorlardan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida 80 dan ortiq subsidiyalar joriy etildi. O'tgan davrda ularga 2,3 trillion so'm ajratildi. Lekin maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, muqobil energetika, baliqchilik, parrandachilik, qorako'lchilik kabi 10 dan ziyod sohalarda subsidiyalar ishlamaypti... (36)"

Ayniqsa, kichik tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar, shuningdek, sohaga berilayotgan katta e'tibor natijasida 1919-2024 yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami 290,6 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan ochildi [11].

Oliy Majlis Senatining 55-yalpi majlisida (2024 yil avgust) "Tadbirkorlik kodeksi" qabul qilinib senatorlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Unda 100 dan ortiq qonunchilik hujjatlari, jumladan, 9 ta qonun unifikatsiya etildi. Xususan, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning yagona yaxlit va tizimli yondashuv joriy etildi.

“Kichik”, “o’rta” va “yirik” biznes mezonlari orqali tadbirkorlik sub’yektlari toifalashtirildi. Tadbirkorlikning asosiy prinsiplari ishlab chiqildi. Ular tadbirkorlik faoliyati erkinligi va kafolatlarini ta’minlash maqsadida qonuniylik, tadbirkorlik erkinligi, sub’yektlar tengligi, halol raqobat, vijdonlilik prezumpsiyasi, korrupsiyadan xoli bo’lish kabi asosiy prinsiplar mustahkamlandi.

Tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni kamaytirish maqsadida 38 ta davlat organining 147 ta nazorat funksiyasi va Biznes-ombudsmanni habardor etish tartibida o’tkaziladigan 20 turdagi tekshiruvlar ro’yxatlari kodeksning ilovasida qayd etildi. Subsidiyalar Prezident qarori bilan joriy etilib, “yagona darcha” prinsipi asosida yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ajratilishi bayon qilindi. Kodeksda ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxonalar, aholining ehtiyojmand qatlamlari ro’yxati va ularni, jumladan, nogironligi bo’lgan shaxslarni qo’llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqildi. Davlat korxonalariga raqobatni cheklovchi to’g’ridan-to’g’ri soliq, bojxona va boshqa turdagi imtiyoz va preferensiyalar berish taqiqlandi.

Professor T.M. Ziyayevning ta’rifiga ko’ra ijtimoiy soha iqtisodiyotining o’ziga xosligi quyidagi mezonlar bilan xarakterlanadi:

1. O’ziga xos iqtisodiy qonuniyatga ega: ularning qiymati bo’lmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy ne’matlar barpo etilmaydi, aksincha xizmat ko’rsatiladi.
2. Albatta, xizmat ko’rsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi. Bu sohalarda xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda bo’ladilar, har xil toifadagi va har xil dildagi odamlarning so’rovlariga javob beradilar. Bu esa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab etadi.
3. Ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohasini joylashtirishdagi kabi ahamiyatga ega emas. Xizmat ko’rsatish sohasining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi ko’rinishdan o’xshashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati esa bir-biriga o’xshamaydi. Chunki, moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari o’z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin o’tkaza boradi. Natijada ijtimoiy sohada iste’mol natijasida mehnat vositalari o’z qiymatini yo’qotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi.
4. Xizmat ko’rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy soha moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat sig’imini ko’pligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko’rsatish sifatini oshirish asosan mehnat resurslari sonini ko’paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiyolashgan usullarini qo’llash orqali amalga oshiriladi.
5. Xizmat iste’mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimizda xizmat ko’rsatish sohasining xizmati asosan bepul ko’rsatiladi. Bozor iqtisodiyotiga o’tish jarayonida respublikamizda ijtimoiy sohada ma’lum xizmat turlari pullik ko’rinishda amalga oshirilmoqda, lekin bunday xizmat ko’rsatishda ham ma’lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muxtoj toifadagi odamlarga ma’lum

yengilliklar berilmoqda. Bepul xizmat bu ijtimoiy sohaning ijtimoiy madaniy (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k.) sohalari xizmatidir. Bu xizmat turlarining rivojlanishi umumiy iste'mol jamg'armalari hisobidan olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Abdullayev A, Muftaydinov Q., Aybetov X. kichik biznesni boshqarish. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003.-6 b.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020.-255 b.

Frayd Djeyson, Xensson, Devid Xaynemayer. Rework: Xurofotlardan xoli biznes. -T.: "Zukko Kitobxon" nashriyoti, 2022.- 46 b.

Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari // Biznes ekspert ilmiy jurnali. 2017.-№4(112). elektron manzil: <http://www.biznesdaily.uz/ri/birjaexpert/47841-ijtimoiy-soha-xarajatlarini-byudjetdan-moliyalashtirishning-o'ziga-xos-xususiyatlari>.

Rahmonov D.A., Sherov A.U. O'zbekistonda byudjet siyosati: nazariya va amaliyot. Monografiya. -T.: "Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020.-65-66 b.

Faxrutdinova Ye.V. rol sosialnoy sferi i sosialnoy politiki v obespechenii ustoychivogo sosialno-ekonomicheskogo razvitiya straky. // Ekonomicheskkiye nauki. -M.: 2029. №8(57)-7 s.

Akonyan G.A. Aktualnyye finansovyye problemy sosialnoy sferi. «Mejdunarodnyy studencheskiy nauchnyy vestnik. Elektronnyy nauchnyy jurnal. Moskva: 2016.-№5 may.

Funk Ya. Predprinimatelskaya deyatel'nost organizatsiy, finansiruyemyx iz byudjeta // Glavnqy buxgalter. Byudjetnqe organizatsii. 2003. №4 70-74 s.

Raxmonov D., Po'latov A., YeVa Viyetsma. O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish // <http://www.btajournals.uz> 2017 №6 yanvar.

Mustafoqulov Sh. Yangi O'zbekiston ishbilarmonlar uchun qulay, iqtisodiyoti baquvat va farovon mamlakatga aylanmoqda // "Xalq so'zi", 2024 yil 16 avgust, №163 (8788).

Tursunov Q. soha himoyasi yo'lidagi muhim hujjat // "Xalq so'zi", 2024 yil 22 avgust, № 169(8792).

Amonboev, M. (2020). Teoriya rinochnogo infrastruktura. Arxiv nauchnyx issledovaniy, 33(1). <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3252> izvlecheno ot Drugiye formaty bibliograficheskix ssylok

Egamnazarov, K., And M. Amonboev. "Development of the Area is an Attractive place for adventure and Tourism lovers: A case of Chimgan." UZBEKISTAN. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali (2022).



II SHO'BA:

AHOLINING ZAIF
QATLAMLARI:

AYOLLAR VA
YOSHLARNI IJTIMOIIY-
IQTISODIY
INTEGRATSIYA QILISH,
IJTIMOIIY ADOLAT VA
TIBBIY XIZMATLAR



МЕХНАТ БАРОМЕТРИ: КАСБИЙ БАНДЛИКНИ БАҲОЛАШ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЎЗБЕКISTОН УЧУН МАНФААТИ НИМАДА?

Муаллиф: Мустафакулов Шерзод Игамбердиевич
Аффилиация: Халқаро Нордик университети ректори
E-mail: sherzod.mustafakulov1977@gmail.com
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13895107>
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5427-1338>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада меҳнат ва касбий барометрнинг фуқаролар, иш берувчилар, таълим муассасалари ва кенг жамоатчилик учун аҳамияти, реал вақтда бандлик ҳолатларини кузатиб боришнинг мамлакатлар, жумладан Ўзбекистонда меҳнат бозорига оид муаммоларга ижобий ечим топишга таъсири билан боғлиқ масалалар тадқиқ этилган. Европа мамлакатлари, дунёнинг қатор ривожланган давлатларида меҳнат бозоридаги мавжуд ҳолат ва бандлик барометридан фойдаланиш тажрибалари кенг ўрганилган. Шунингдек, Нордик университетининг Бирлашган Мамлакатлар Ташкилотининг Тараққиёт дастури (БМТТД) ва Бандлик ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги томонидан қўллаб-қувватланаётган амалий лойиҳа доирасида ишлаб чиқиладиган касбий бандлик барометрини баҳолаш услубияти ва унинг Наманган вилоятида синовдан ўтказилиши натижалари баён этилган.

Калит сўзлар: Бандлик барометри, меҳнат барометри, касбий барометр, бандликни ўлчаш, секторлар, бизнес цикллари, меҳнат бозори, иш берувчи, ишчи кучи, меҳнат муносабатлари, меҳнат қонунчилиги, иш ҳақи, ишсизлик, камбағалликни қисқартириш.

КИРИШ

Касбий бандлик барометри – маълум бир соҳадаги ҳар бир касб бўйича ишчи кучининг керагига нисбатан қанчалик фарқланишини тавсифловчи кўрсаткич. Иқтисодиёт ва бошқа секторлар “пулси”ни ўлчаш воситаси, дейиш мумкин. Бу кўп ўлчовли ва кўп босқичли тадқиқот ҳосиласи, кенг жамоатчилик учун ҳар жиҳатдан манфаатли маълумотлар ҳолатини баҳолаш, иқтисодиётдаги ўзгаришларни нафақат ҳар чоракда, балки ўз вақтида - ҳар ойда ўлчаш имкониятини беради. Меҳнат бозорида иш берувчиларнинг келгуси чоракларда ишчи кучига бўлган талаби, янги ишчиларни жалб этиш бўйича белгиланган режаларнинг ўсиш, пасайиш ёки ўзгаришсиз қолиш ҳолатларини аввалдан баҳолаш имконини яратади. Бу эса, жамиятимиз аъзолари – ота-оналар, ёшлар ва таълим тизимидаги иштирокчи муассасалар фаолиятида ҳам истиқболни белгилаб олишда муҳим аҳамият касб этади.

Бандликни ўлчаш барометрини тузиш ва услубиятига эга бўлиш меҳнат муносабатларида нафақат иш берувчи компаниялар, балки ишчи-аҳоли ҳаётини ҳам осонлаштиради, меҳнат бозорига оид муаммоларга ижобий ечим топишга хизмат қилади.

Касб танлашни режалаштираётган ёшлар келгусидаги яшаш ёки ўқиш жойини танлашда ишчи кучи барометридан фойдаланишлари муҳимдир. Барометр минтақавий истиқбол ва турли ҳудудлардаги меҳнат бозори ҳолатини солиштиришга ёрдам беради ҳамда касб турлари бўйича соҳалардаги меҳнат бозори ҳолати ҳақида маълумот олишда қўл келади. Иш берувчилар, масалан, ишга қабул қилиш стратегиясини режалаштириш ва инвестиция қарорларини қабул қилишда ҳам барометрдан фойдаланишлари мумкин. Меҳнат бозоридаги вазият тўғрисидаги маълумотлар компаниялар учун ҳам самарали бўлиб, рақобатбардошлигини сақлаш ва оширишга ёрдам беради. Таълим ва кадрлар тайёрлаш муассасалари нуқтаи назаридан оладиган бўлсак, меҳнат бозори эҳтиёжларини қондириш учун қандай замонавий йўналишларда ўқитишни ташкил этиш кераклиги ҳақида зарур маълумотларни олишлари мумкин бўлади.

Ўзбекистонда бандлик барометри тузилиши ишчи кучини ривожлантириш бўйича маълумотлар билан таъминланиш даражасини оширади. Меҳнат бозорининг ўзига хос динамикасини кузатиш мумкин бўлади.

Маълумки, мамлакатимизда давлатимиз раҳбари ташаббуси билан жорий этилган маҳаллаларда хонадонбай юриш – хатловга олиш асосида сўровлар ўтказиб борилади. Асосий эътибор: инсонлар фаровонлигига таъсир этувчи турли ижтимоий-иқтисодий омилларга қаратилади. Бу омиллар таълим, бандлик, соғлиқни сақлаш, ижтимоий ҳимоя, турмуш даражаси, ахборотдан фойдаланиш, овқатланиш ва ҳоказоларни ўз ичига олади. Барча саволлар Ўзбекистоннинг ўзига хос иқтисодий сиёсатига мослаштирилган бўлиб, фаровонлик ёки камбағаллик кўрсаткичларини ишлаб чиқиш имконини беради. Асосан яшаш шароитлари, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий капитал, молиявий инклюзия ва бандлик ҳолатларига эътибор қаратилади.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясида ишсизлик ва камбағалликдан чиқариш борасидаги муаммоларни ҳал этиш учун мамлакатимиз ялпи ички маҳсулотини икки баробарга ошириш, қашшоқлик ёқасида турган 4,5 миллион аҳолининг даромадларини юксалтириш каби асосий мақсадлар белгилаб олинган. Стратегия барчани, жумладан, ёшлар ва ногиронлар учун ҳам барқарор ва самарали иш билан таъминлаш имкониятини яратиш орқали эҳтиёжмандларни ижтимоий ҳимоя билан тўлиқ қамраб олишни таъминлаш ва ишсизлик даражасини 7 фоизга камайтиришга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Ижтимоий ҳимоя стратегиясида барча фуқароларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг минимал даражасини таъминлайдиган тизим яратиш режалари белгилаб берилган. Бунга ижтимоий ёрдамнинг қамровини кенгайтириш ва манзиллилигини такомиллаштириш орқали эришиш кўзда тутилган. Бугунги кунда барча ижтимоий ҳимоя механизмлари БМТТД ва ЮНИСЕФ кўрсатмаларига мувофиқ янги ташкил этилган ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги доирасида интеграциялашмоқда.

Амалий хатти-ҳаракатлар

Халқаро Нордик университети БМТнинг Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини қўллаб-қувватлаш борасидаги фаолиятида кенг иштирок этмоқда. Нордик университети БМТТД танловида касбий бандлик барометрини ўрганиш, услубиятини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш бўйича грантга сазовор бўлди. Университет томонидан Барқарор ривожланиш мақсадларига, хусусан, камбағалликнинг барча шаклларида кенг қамровли барҳам бериш, меҳнат билан бандликка қўмаклашишни назарда тутувчи 1-мақсадга эришишда натижаларни жадаллаштиришга қаратилган махсус лойиҳа ишлаб чиқилди. Эндиликда Нордик тадқиқотчилари БМТ Тараққиёт дастурининг гранти асосида мамлакатимиз меҳнат бозорига оид муаммоларни илмий асосда ечишга қаратилган **"Фарғона водийсида аҳолини пандемиядан кейинги иқтисодиётга кўникмаларини мослаштириш"** лойиҳаси доирасида илмий изланишлар олиб боришмоқда.

Университет тадқиқотчилари ва БМТТД вакиллари иштирокида бандлик барометрларини баҳолаш методологияси тақдимоти ўтказилди. Лойиҳани амалга ошириш билан боғлиқ ташкилий, услубий масалалар кенг муҳокама этилиб, босқичма-босқич имплементация жараёнлари татбиқ этилиши назарда тутилмоқда. Мазкур инновацион лойиҳа Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги томонидан ҳам катта қизиқиш билан қабул қилинмоқда ва қўллаб-қувватланмоқда.

Ўзбекистонда mehnat.uz, uzjobs.com, hh.uz ва бошқа порталларда бўш иш ўринлари тўғрисида маълумотлар мавжуд бўлса-да бандлик тури борасида илмий асосланган хулосалар чиқариш учун етарли эмас. Боиси бўш иш ўринларининг маълум қисмигина эълон қилинади, эълон муддатларида фарқ ва тафовутлар кузатилади, номзодларнинг резюмеларини улар иш топгач ҳам порталдан олиб ташланмаслик ҳолатлари мавжуд.

Кадрлар агентликлари томонидан тижорий ва бошқа манфаатли мақсадларда бўш иш ўринлари ҳақидаги маълумотларни яшириш ҳолатлари ҳам учраб туради. Шунингдек, юртимизда юқори малакали кадрлар иш қидириб, меҳнат органларига мурожаат қилмайди. Бу ҳам бўш иш ўринлари ҳақидаги маълумотларнинг сифати ва тўлиқлигига салбий таъсир ўтказади.

Ушбу мавжуд долзарб муаммоли вазиятларга замонавий, қулай ва сифатли ечим сифатида бандлик сиёсати инструменти – касбий барометрни амалиётга жорий этиш бўйича тадқиқотларни амалга ошириш лозим. Бу муҳим восита ишсиз фуқароларнинг **"Худудимизда қайси касб эгаларига эҳтиёж юқори? Қайси касбда иш ҳақи юқори?"** каби ҳаётий долзарб саволларга илмий асосланган жавоб олишларига қўмаклашади. Иқтисодиёт талабларига мутаносиб равишда кадрлар тайёрланиши ва бандликнинг бевосита барқарор ўсиб боришига катта ҳисса қўшади.

Шу билан бирга, мазкур инструмент **"Худудда ўзи қайси бандлик турлари танқис ва улар бўйича қанча ишчи кучи керак"** деган саволга жавоб бермайди – бунинг учун бошқа инструментдан (камида 700 та корхона ва ташкилотларни танланма ўрганиш инструменти) фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Аммо, агар дастлаб биринчи инструментдан фойдаланилса, иккинчи инструментни кластерлашган танланмага қўлласа бўлади (танқис бандлик турларига эга бўлган фаолият турларига) ва натижаларнинг янада ҳаққоний бўлиши таъминланади.

Агар иккала инструментдан кетма-кетликда фойдаланилса, юқоридаги “қайси” ва “қанча” саволларга жавоблар топилиб, кадрларнинг иқтисодий талабларига мутаносиб таёрланиши таъминланади.

Хорижий тажрибалар шарҳи

Бандлик барометрини тузишнинг хорижий, хусусан Германия тажрибаларига назар солсак, аввало иқтисодийнинг асосий тармоқларини аниқлаб олишга эътибор қаратилади. Яъни, саноат, савдо, қурилиш ва турли хизматлар. Кейин эса иштирокчи фирмалар сони (камида 1000 та, компаниялар қанча кўп бўлса шунча яхши) ва ҳар бир сектор вакиллари маълумотларига қараб аниқланади. Ташкилий харажатларни минималлаштириш учун асосан онлайн сўров шаклидан фойдаланилади.

Тадқиқотларни амалга оширишда Qualtrics, SurveyMonkey ва LimeSurvey каби профессионал, бепул, очиқ ва осон манбалар - сўров дастурларидан фойдаланилади. Бу дастурлар маълумотларни тажрибаларга айлантириш, иш берувчилар ва ходимлар учун драйверларни аниқлаш ва ўсишга қаратилган қарорлар қабул қилишга ёрдам беради. Шу асосда бандлик барометрини тузиб олиш ва бизнес цикллари ривожланишини таҳлил қилиш имконини беради.

IFO (Institut für Wirtschaftsforschung) – Германиянинг иқтисодий тадқиқотлар институти “Макроиқтисодий тадқиқотлар ва сўровномалар маркази” директори ўринбосари доктор Клаус Волрабе маълумотларига кўра, Германияда энг кам меҳнат ҳақи номативлари бандлик барометрига қараб белгиланади. Германиянинг IFO Бандлик барометри 2002 йилдан буён тадқиқотлар натижасида олинган иш берувчиларнинг ишчи кучига бўлган талаби тўғрисидаги ахборотларни тақдим этиб келмоқда. Тадқиқотларда 9500 дан ортиқ ишлаб чиқариш, қурилиш, улгуржи ва чакана савдо ва хизмат кўрсатиш соҳалари корхона-ташкilotлари маълумотларидан фойдаланилади.

Ўзбекистон ва Германия ҳукуматлари ўртасида 2019 йилда Берлин шаҳрида “Иқтисодий ислохотларни амалга оширишда Ўзбекистон Республикасини қўллаб-қувватлашга оид консултатив фаолият тўғрисида”ги ҳамкорлик декларацияси имзоланган ва амалиётга татбиқ этиш чоралари белгиланган. Германия тажрибаларидан фойдаланиш, ўз навбатида Ўзбекистон меҳнат бозори учун самарали бўлиши мумкин.

Финляндия мамлакатада меҳнат барометри бўйича бирмунча илғор тажрибалар тўпланмоқда. Финляндияда турли операторларга меҳнат ва малакага бўлган эҳтиёжлар ҳақида юқори сифатли ва ҳар томонлама тезкор маълумотларни тақдим этиш мақсадида меҳнат барометридан фойдаланилади. Ишчи кучига бўлган эҳтиёж тўғрисидаги маълумотлар йилига бир марта октябрь ойида “Касбий барометр”да эълон қилинади. Меҳнат барометри нафақат ишдаги лавозим, малака эҳтиёжларига қараб меҳнат бозори талаблари ва истиқболлари ҳақида тўлиқроқ тасаввур беради.

Мамлакатда ишчи кучи барометридан меҳнат ресурслари (фуқаролар), иш берувчилар, таълим муассасалари ва қарор қабул қилувчи шахслар кенг фойдаланадилар. Ишчи кучи барометри меҳнат бозори эҳтиёжларига жавоб берадиган ўқув дастурларини режалаштиришга ҳам ёрдам беради. Қарор қабул

қилувчилар қарорни қўллаб-қувватлаш учун Ишчи кучи барометри томонидан тақдим этилган маълумотлардан фойдаланишлари мумкин. Маълумотлар ресурсларни энг зарур бўлган соҳа ва тармоқларга тақсимлашга ёрдам беради.

Финляндияда меҳнат барометрига маълумотларни йиғиш жараёнини кўриб чиқамиз. Меҳнат барометри учун марказий маълумот манбаси минтақавий экспертларнинг яқин келажак эҳтиёжлари ҳақидаги фикрларидир. Шунингдек, статистик нуқтаи назардан, марказий ҳудудларнинг минтақавий муҳокама тадбирлари ва саноат семинарлари, маҳаллий Ely (Транспорт ва атроф муҳитни иқтисодий ривожлантириш маркази) марказлари ахборотларидан фойдаланилади. Муҳокама сессиялари асосида Ely марказлари келгуси йил учун ишчи кучига бўлган талаб ва таклифни прогноз қилади. Ушбу баҳолашлар асосида ишчи кучининг ҳозирги ҳолати тавсифи тузилади. Меҳнат баланси, ишчи кучидаги ортиқча таклифлар, меҳнат муаммоси ва ишчи кучи етишмаслиги баҳоланади. Марказий ҳудудлар ва алоҳида тармоқлар учун ҳисоб-китоблар тайёрланади.

Финляндиянинг катта қисми меҳнат бозоридаги номувофиқликдан азият чекар эди. Эндиликда ишчи кучи барометри маълумотларидан ўз фаолиятини режалаштираётган меҳнат ресурслари (иш қидирувчилар), иш берувчилар, таълим ва таълим муассасалари кенг фойдаланишмоқда. Ely марказларида ҳар бир ҳудуд учун маълумотлар йиғилади. 2023 йил октябрь ойида минтақалар, тармоқлар ва йирик иш берувчилар учун асосий экспертлар иштирокида 50 та муҳокама тадбири ўтказилди. Касбий барометр билан солиштирганда, ишчи кучи барометри меҳнат бозори ва унинг эҳтиёжларини янада кенгроқ кўриб чиқиш имконини беради, чунки у нафақат касбий лавозимлар, балки малака эҳтиёжларини ҳам ўрганади. Янги тармоқ ёндашуви ишчи кучига бўлган эҳтиёжни аниқроқ тасвирлаш имконини беради.

Давлат ҳукуматининг valtioneuvosto сайти маълумотларига кўра, бу кузда янгиланган ишчи кучи барометри технология саноати ва ижтимоий, соғлиқни сақлаш ва соғломлаштириш соҳаларининг келажакдаги истиқболларига эътибор қаратади. Энг катта ишчи кучи танқислиги соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизматлар соҳаларида бўлиб, малакали ишчилар, хусусан, кекса одамларга ғамхўрлик қилиш талаб этилади. Келгуси ёздан кейин технология секторининг истиқболлари яхшиланиши кутилмоқда.

Финляндияда "Касбий барометр" йилдан-йилга барча ҳудудларда ишчи кучига бўлган эҳтиёж ва малакалар тўғрисида янада кенгроқ ва изчил маълумот бериб бормоқда.

Венгрия меҳнат бозоридаги мавжуд ҳолатга назар солсак, ёш дискриминациясига қарши курашиш учун самарали механизмлар ташкил этилмоқда. Мамлакатнинг Европа турли-туманлик Ҳартиясига содиқлиги иш жойларида тенг муомалани тарғиб қилишга бағишланганлигини кўрсатди. Бундан ташқари Венгриянинг меҳнат хавфсизлиги қонунлари, айниқса, психосоциал хавфларга қаратилган бўлиб, барча ёш гуруҳлари учун хавфсиз ва инклюзив иш муҳитини таъминлашга эътибор қаратилган.

Энг сўнгги Барометр нашрида ёшлар, аёллар ва кексалар учун ҳам қулай иш муҳитини таъминлашда ижобий муҳит яратишга эътибор қаратилган. Пенсияга чиқиш ёшига яқинлашган ишчиларни ишдан бўшатилишдан ҳимоя қилиш, узок

хизмат муддати учун молиявий рағбатлантиришда пенсионер кооператив каби ташаббуслар илгари сурилади. “Аёллар 40” дастури каби режалар ҳам мавжуд бўлиб, бу аёлларга 40 йиллик иш тажрибасидан кейин тўлиқ имтиёзлар билан эрта нафақага чиқиш имконини беради. Шунингдек, HelloIT дастури каби ташаббуслар рақамли кўникмаларни ошириш орқали кекса аёллар, айниқса қишлоқ ҳудудларидаги аёллар учун иш билан таъминланиш имкониятларини оширишга қаратилган.

Венгрияда аҳолини меҳнат бозорига интеграция қилишда ноқулай сиёсатлар, гендер тенгсизлиги, аҳолининг қариши, миграция амалиётлари ва сиёсатлари, технологик чекловлар, сиёсий манфаатлар, анъанавий ва маданий қарашлар каби қатор тўсиқлар мавжуд. Мамлакатда эндиликда тизимли маълумот йиғиш ва яхши амалиётларни ҳужжатлаштиришни янада такомиллаштириш устида ишланмоқда. Бу орқали асосланган қарорлар қабул қилиш ва муваффақиятли моделларни қайта кўриб чиқиш учун асос яратилади. Венгрияда барометр ҳисоботларини тайёрлашда 18 та мамлакатнинг тажрибалари ва билимларидан фойдаланилади. Ушбу билимларни кўриб чиқиш ва солиштириш орқали Венгрия самарали стратегияни қабул қилиш учун қимматли сабоқларни йиғмоқда.

Касбий бандлик барометри ҳозирги кунда Финляндияда (2011 йилдан), Полша, Германия, Венгрияда жорий қилинган. Ёшларни касбий йўналтириш, касб-хунар ва олий таълим мутахассисликларига талабни ўрганиш, кадрлар захираларини режалаштириш каби соҳаларда қўлланилади. Хорижий тажрибаларни ўрганиш асосида хулоса қилиш мумкинки, Ўзбекистонда Касбий барометр яратишда хорижий тажрибалардан тўлиқ фойдаланиш у қадар ўзини оқламайди. Финляндия ва Полша тажрибалари мисолида оладиган бўлсақ, фокус-гурuhlар кенгайтирилган бўлгани боис интервьюлар деярли ўтказилмайди. Ҳар бир ҳудудда 1-4 нафаргача (15-60 нафаргача) фокус-гурухи тузилиб, марказлашган ҳолда мунозаралар ўтказилади. Лекин экспертларни бир жойда йиғиш мушкул, узоқ масофа босиб келган эксперт эса кўп вақт йўқотади. Экспертлар фикр алмашиб, яқдил бир хулосага келишади, бунда эса муқобиллик бирмунча паст бўлади.

Шу боис Нордик университети томонидан яратилаётган Ўзбекистон касбий бандлик барометри услубиёти хорижий барометрлардан бирмунча устунлик касб этади. Маҳаллий иқтисодий хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда 20 нафардан 32 нафаргача кичик фокус-гурuhlар тузиб, интервьюлар ташкилланмоқда. Бунинг афзаллиги шундаки, экспертлар иш жойидан ажралмаган ҳолда баҳо беришади (10-15 дақиқа вақт сарфланади холос). Эксперт фақат ўз фаолияти тури бўйича фикрини айтади. Экспертлар бир-бирининг фикридан беҳабар ҳолда мустақил хулоса беришади. Натижада эса муқобил ва бир-бирига боғлиқ бўлмаган холис баҳолар олинади.

МЕТОДОЛОГИК ЖИҲАТЛАР ВА ТАҲЛИЛ НАТИЖАЛАРИ

Мақолада меҳнат бозоридаги, хусусан водий вилоятларидаги мавжуд ҳолатни ўрганишда танқидий таҳлил усулидан кенг фойдаланилди. Шунингдек, дунё давлатларидаги мавжуд бандлик сиёсатлари, фаровонлик дастурлари,

аҳолини қўллаб-қувватлаш, иш билан таъминлаш хизматлари, касбий барометрлар борасидаги адабиётлар кўриб чиқилди. Ушбу тадқиқот натижаларини кенг қамровли тақдим этиш учун тематик таҳлил ҳам қўлланилди.

Халқаро Нордик университети, Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда БМТ Тараққиёт дастурининг “Фарғона водийсида аҳолининг кўникмаларини пандемиядан кейинги иқтисодиётга мослаштириш” лойиҳаси меҳнат органлари учун прогрессив хорижий тажрибалардан фойдаланган ҳолда меҳнат бозорининг профессионал таркибини баҳолаш ва қисқа муддатли прогнозлаш воситасини яратишга қаратилган.

Касбий бандлик барометрини ишлаб чиқиш лойиҳасининг 1-, 2-босқичи доирасида Наманган вилоятида Бандлик барометрини синовдан ўтказиш бўйича барча чора-тадбирлар амалга оширилди. Наманган вилоятининг туман ва шаҳарларида иш излаётган фуқаролар сони ва бўш иш ўринлари ҳақида маълумотларни йиғиш мақсадида хизмат сафарлари уюштирилиб, экспертлар баҳолари асосида бандлик барометри ишлаб чиқилди. Ҳар бир маҳаллий меҳнат органи ҳузурида мутахассислик ва касб бўйича Бандлик барометрини тузиш юзасидан интервью ташкилаш мақсадида маҳаллий респондентлар гуруҳлари тузилди. Гуруҳга камида 2 йил иш тажрибасига эга, ўз фаолият турини яхши тушунган (лавозим нуқтаи назаридан раҳбар ёки раҳбар ўринбосари ёки етакчи мутахассис) экспертлар жалб этилди. Гуруҳ таркибига меҳнат бозоридаги вазиятни ўрганишдан манфаатдор томонлар – ижтимоий ва бизнес вакиллари киритилди.

Наманган вилоятининг ҳар бир туманида, жумладан Наманган шаҳрида ҳудуд иқтисодиётининг жойлардаги хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда экспертлар гуруҳи шакллантирилди (20-32 тагача фаолият тури бўйича). Шунингдек, олтита долзарб саволдан иборат Саволнома шакллантирилди. Структуралаштирилган интервьюлар учун услубий кўрсатмалар ва сўровномалар тайёрланди. 4 нафар интервью олувчи танланиб, улар учун тренинг ташкилланди. 2024 йилнинг 2-14 июнь кунлари 103 та интервью ташкилланди. Интервьюлар қисман масофавий тарзда (53 та) қисман бевосита жойларда (50) электрон шаклдаги сўровнома асосида ўтказилди. Ҳар бир экспертга саволлар 10-20 тадан ошмаган тарзда фаолият ва бандлик турига қараб берилди. Интервьюлар 8-15 дақиқа давом этди.

Сўровномада жами 194 та касб гуруҳлари акс эттирилган. Қишлоқ сув, балиқ ва ўрмон хўжаликлари, улгуржи ва чакана савдо, банк хизматлари, консалтинг хизматлари, металлургия саноати, кимё саноати, машинасозлик, ёғочга ишлов бериш, қурилиш материаллари каби 194 та касб гуруҳлари шулар жумласидан. Респондентлардан ҳамма касблар бўйича эмас, фақат ўз соҳасига тегишли саволларга жавоблар олинди. Улар ёрдамида ўзлари вакиллик қилаётган ҳудудда кадрлар ҳаракати билан боғлиқ вазият бўйича аниқ маълумотлар жамланди. Ҳар бир жавоб варианты 1-6 рақамлари билан кодланди ва бу рақамлардан таҳлил мақсадларида фойдаланилди.

Касбий бандлик барометрини тузиш мақсадида экспертлар билан интервьюлар ўтказиш бўйича услубий кўрсатмалар ишлаб чиқилди. Маҳаллий

касбий бандлик барометрини ишлаб чиқиш бўйича маҳаллий тавсия этилган ижтимоий шериклар ва бизнеснинг маҳаллий вакиллари рўйхати шакллантириб олинди. Бу рўйхатга 30 дан зиёд муассаса, ташкилот ва корхоналар раҳбарлари ва ўринбосарлари, мутахассислари киритилган.

Барометр жорий ҳолат ва йиллик прогнозни кузатиб бориш имкониятини берди. Шу тариқа меҳнат бозорида қайси касб (бандлик тури) бўйича ишчи кучи керагидан ҳаддан зиёд кўп ёки ниҳоятда камлиги аниқлаб олинди. Келгусида миқдорий тадқиқотларни талаб қиладиган гипотезалар яратилади. Арифметик ўрта ва дисперсиянинг ўрнида мода ва мувофиқлик коэффициенти кўрсаткичларидан фойдаланилди. Касбий бандлик барометри 6 та сифатий аломатдан бирини акс эттиради. 200 та кенгайтирилган бандлик турини қамраб олади, яъни 8 мингтага яқин бандлик турлари тахминан 200 тага гуруҳланади.

Наманган вилояти бўйича маҳаллий экспертлар хулосалари тўпланди. Хулосаларнинг модал қиймати ва мувофиқлик коэффициентлари ҳисобланиб, вилоят бўйича якуний хулосалар чиқарилди. Вилоят бўйича олинган натижалар ва хулосалар сифатий маълумотлар сирасига киради.

Наманган вилоятида бандлик турлари мақомига назар солсак, бугунги кунда 194 тадан 43 та бандлик тури (деярли ҳар бешинчи касб) бўйича ишчи кучи керагидан камлиги аниқланди. Лекин прогноз қилиш мумкинки, бир йилдан сўнг бу вазият ўзгаради, аксинча 64 та бандлик тури бўйича ишчи кучи керагидан кўп бўлиши кутилмоқда.

Айни дамда дефицит касблар катта муаммодир. Кўпгина йиллар давомида иш берувчилар ишчи кучини топишда қийинчиликларга дуч келган касблар мавжуд. Буларга қуйидаги касблар киради: дурадгорлар ва қурилиш дурадгорлари, том ёпувчилар ва чилангарлар, электриклар, электромеханиклар ва электр монтажчилари, физиотерапевтлар ва массажчилар, автобус ҳайдовчилари, юк машиналари ва трактор ҳайдовчилари, ошпазлар, шифокорлар, омборчилар, автомобил механиклари, қурилиш монтажчилари, фишт терувчилар ва сувоқчилар, касб таълими ўқитувчилари, ер текислаш ускуналари операторлари ва механиклари, дастгоҳ операторлари, қурилиш ишчилари, мустақил бухгалтерлар, пайвандчилар ва чилангарлар.

ХУЛОСА

Axborotlashgan jamiyat rivojlanishida zamonaviy o'qitish texnologiyalari va elektron o'quv platformalarning ahamiyati katta. Bu jarayonda bir necha muhim aspektlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Elektron o'quv ta'lim: Ta'lim muassasalarida elektron o'quv ta'lim platformalari, onlayn kurslar va interaktiv o'qitish metodikalari joriy etilishi talab qilinmoqda. Bu talablar talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

2. Masofaviy o'qitish: Masofaviy o'qitish usullari, ayniqsa pandemiya davrida, jamiyatdagi barcha qatlamlarga ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu usullar

talabalarga o'z vaqtida ta'lim olish, ish bilan band bo'lgan yoshlarga esa o'z bilimlarini oshirish imkonini beradi.

3. Raqamli resurslar: Raqamli kitoblar, onlayn seminarlar, vebinarlar va videoleksiyalar kabi resurslarning mavjudligi bilim olish jarayonini osonlashtiradi. Talabalar bu resurslardan foydalanib, o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

4. Interaktiv o'qitish: Interaktiv platformalar va dasturlar orqali o'qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin.

5. Mahalliy va xalqaro hamkorlik: Ta'lim muassasalari o'rtasida mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va yangi metodikalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

6. Kasbiy tayyorgarlik: Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbiy ta'limga e'tibor qaratish, stajirovka va amaliy mashg'ulotlarni ko'proq tashkil etish zarur. Bu talabalarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu yo'nalishlardagi ijobiy o'zgarishlar mamlakatimiz ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirishga yordam beradi va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Elektron o'quv o'qitish faqatgina mashg'ulotlar matnigina emas, balki, tarmoqda zarur axborotlarni qidirish, ma'lumotlar almashish, ma'lumotlar bazasiga murojaat etish, internet tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanishdir. Elektron o'quv o'qitish o'zining xususiyatiga ko'ra, individual o'qish bo'libgina qolmay, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham rivojlantirishga imkon beradi.

Elektron o'quv ta'lim shakli o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy afzalliklari shundan iborat:

-ochiq va qulay foydalanish: talabalar va o'qituvchilar uchun har qanday vaqtda va joyda ta'lim resurslariga kirish imkoni yaratiladi. bu, ayniqsa, ish bilan band bo'lgan yoshlar uchun muhim.

-kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim: elektron o'quv platformalar orqali kasbiy bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus kurslar, vebinarlar va interaktiv modullar taklif etiladi.

-mustaqil ta'lim ko'nikmalari: talabalar mustaqil ravishda o'rganish, o'z vaqtida materiallarni qayta ko'rib chiqish va o'z bilimlarini samarali baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

-ijtimoiy inklyuziya: elektron o'quv ta'lim vositalari yosh, malaka, salomatlik yoki joylashgan hududidan qat'iy nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadi. bu, ayniqsa, olis va kam ta'minlangan hududlardagi talabalar uchun muhimdir.

-interaktivlik: elektron o'quv ta'lim platformalari interaktiv elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

-ta'limning individuallashtirilishi: talabalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan ta'lim mazmunini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu jihatlar elektron o'quv ta'limning samaradorligini oshiradi va uni zamonaviy ta'lim tizimida muhim elementga aylantiradi.

Demak, o'quv jarayonini elektron o'quv ta'lim shaklida tashkil etish – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning turli ko'rinishdagi axborot va kommunikatsiya manbalaridan ochiq va qulay foydalanish, aniq kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini kengaytirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil ta'lim ko'nikmasini rivojlantirish,

yoshi, malakasi, salomatligi, ish sharoitlari, joylashgan hududiga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim olish imkoniyatlarini beradi. Tahlillar asosida, ta'lim jarayonlarida elektron o'quv ta'lim yoshlarning tadbirkorlik-moliyaviy savodxonligini oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha yagona elektron o'quv platformasi (<https://biznestadbir.uz>) yaratilib, ushbu elektron o'quv platformaning maqsadi yoshlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim orqali tadbirkorlikka yo'naltirishdan iborat.

Elektron o'quv platformaning vazifasi esa, yoshlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish orqali kasbga yo'naltirish; yoshlarni tadbirkorlik tafakkuri va savodxonligini oshirish, biznes g'oyalar va biznes rejalar ma'lumotlar bazasi (banki)ni yaratish; yoshlarni tadbirkorlik savodxonligi hamda ularning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan masofadan o'qitish; yoshlarda o'z o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan soft skills, hard skills va self menejment kompetensiyalarini rivojlanishiga ko'maklashishdir.

Elektron o'quv platformasida yoshlarning tadbirkorlik va moliyaviy savodxonligini oshirish hamda o'z o'zini bandligini ta'minlash yo'nalishlari ikkita yo'nalishga ajratilib, birinchi yo'nalish tadbirkorlik va biznes onlayn kursi, ikkinchi yo'nalish o'z o'zini band qilish yo'nalishlaridan iborat.

Elektron o'quv platformasining birinchi yo'nalishi tadbirkorlik va biznes onlayn kursida o'quv modullarning mazmuni va ajratilgan soatlar hajmini belgilashda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zaruriy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga asoslanildi hamda har bir modul bo'yicha videoroliklar yaratildi hamda uning metodik ta'minoti ishlab chiqildi.

Veb portalning ikkinchi yo'nalish o'z o'zini band qilish yo'nalishiga yoshlarning o'z o'zini band qilish orqali daromad topishga qaratilgan hamda kasbga yo'naltirish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etilgan. Bu o'z o'zini band qilish yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarning ham metodik ta'minoti ishlab chiqilib, qisqa muddatli o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan ishtirokchilarga onlayn veb-portal orqali elektron o'quv sertifikatini taqdim etiladi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, elektron o'quv ta'lim resurslari zamonaviy ta'limda muhim rol o'ynaydi. Ular yoshlarning axborot texnologiyalari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarini oshirishga, o'qitish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, elektron resurslar yoshlarning quyidagi imkoniyatlarini namoyon qilishga yordam beradi:

- interaktivlik-talabalarga mustaqil o'rganish imkonini beradi, ular o'z templarida va qiziqishlariga mos ravishda o'rganishlari mumkin.

- tadbirkorlik kompetensiyasi-onlayn kurslar va treninglar orqali tadbirkorlikka oid bilimlarni olish imkonini yaratadi.

- resurslarga oson kirish: internet orqali turli manbalardan foydalanish imkonini ta'limni boyitadi.

- ta'limni individuallashtirilishi: talabalar o'z ehtiyojlariga mos resurslarni tanlashlari mumkin bo'ladi.

Shu sababli, elektron o'quv ta'lim resurslari ta'lim jarayonini samarali va zamonaviy qilishda muhim ahamiyatga ega. Elektron o'quv ta'lim resurslari ko'p jihatdan qulay

bo'lib, ta'lim olish jarayonida yoshlarning axborot texnologiyalari kompetentlik darajasini oshirishga, o'qitishning noodatiy usul va vositalaridan foydalanishga, tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, elektron o'quv ta'lim resursidan foydalanish natijasida yoshlarning axborot maydoni kengayishiga, o'z o'zini rivojlantirib, takomillashtirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar.

Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari- dan foydalanish metodikasi. // Monografiya. – T.: TDPU Rizografiya, 2014. 7,5 b.t.

Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. 145 b.

Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi: Monografiya. –T.: "Lesson press", 2023, – 118 bet.

Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli // Uzluksiz ta'lim jurnali. –T.: 2022. – 6-son. –B. 34-40.

Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tizimli yondoshuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish // Xalq ta'limi. –T.: 2021, – 5-son. – B. 44-49.

Omonova X.T. "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirish" // "Aholi farovonligini oshirishda yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –T.: 2023, – B.106-110

Omonova X.T. Zamonaviy Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilkotlari boshqaruvida rahbarning o'rni. // "Ta'limda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalar: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –T.: 2024, – B. 941-944.



MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYASI: O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI VA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

Muallif: Tashtanova Dilafuz Ermuhammad qizi¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik Universiteti¹, Moliya va Moliyaviy texnologiyalar sirtqi talim yo'nalishi 3-kurs talabasi¹

E-mail: dilafuztashtanova531@gmail.com¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13894847>

ANNOTATSIYA

Tadqiqot mavzusi va maqsadi: ushbu tadqiqotning asosiy mavzusi O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag'allikni qisqartirish masalalarini o'rganish va xalqaro tajribalarni tahlil qilishdir. Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda kambag'allik darajasini kamaytirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash. Tadqiqotda ko'rib chiqilayotgan asosiy muammo – O'zbekistonda kambag'allik darajasining yuqoriligi va uni qisqartirishda mavjud milliy strategiyalarning samaradorligi. Shu bilan birga, mamlakatdagi kambag'allikni kamaytirish yo'llarini xalqaro tajribalar asosida qanday takomillashtirish mumkinligi asosiy savol sifatida ko'tarilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar kombinatsiyasi qo'llanilgan. Asosan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirish, hamda xalqaro mamlakatlarning kambag'allikni kamaytirish strategiyalarini o'rganish uchun komparativ tahlil metodlari ishlatilgan. Shuningdek, intervyu va ekspert fikrlarini yig'ish orqali empirik ma'lumotlar to'plangan. Praktik tavsiyalar sifatida, hukumatga kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni chuqurroq tahlil qilish, mahalliy sharoitlarga moslashtirish va samarali amalga oshirish mexanizmlarini yaratish tavsiya etiladi. Nazariy jihatdan esa, tadqiqot milliy va xalqaro taraqqiyot strategiyalarini integratsiyalash yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, milliy taraqqiyot, xalqaro tajribalar, iqtisodiy rivojlanish.

KIRISH

O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag'allikni qisqartirish masalalari bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda va aholining hayot sifati darajasini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hukumati milliy rivojlanish strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda, ammo bu jarayon murakkab va ko'plab omillar bilan bog'liq. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur o'rganish va xalqaro tajribalarni tahlil qilish kambag'allikka qarshi samarali choralar ishlab chiqish imkonini beradi. Kambag'allikning global muammo sifatida dolzarbligi va uni qisqartirish masalasi bugungi kunda O'zbekiston uchun iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu tadqiqotning asosiy muammosi – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda samarali strategiyalar va siyosatlarning yetishmasligi. Mavjud chora-tadbirlarning iqtisodiy natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmayotgani sababli kambag‘allikka qarshi kurashda xalqaro tajribalardan foydalanish zaruriyati tug‘ilmoqda. Tadqiqotda ushbu muammo nazariy jihatdan O‘zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi nuqtai nazaridan va amaliy jihatdan kambag‘allikni kamaytirish choralarining samarasini oshirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, bu masalalar mamlakatning iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashda va ijtimoiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha milliy strategiyani takomillashtirish uchun xalqaro tajribalarni tahlil qilish va samarali choralarni ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- O‘zbekiston milliy taraqqiyot strategiyasining kambag‘allikka qarshi siyosati tahlili;

- Xalqaro mamlakatlarning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribalarini o‘rganish;

- Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

- Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, va boshqa xalqaro tashkilotlar kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirib, kambag‘allikka qarshi samarali siyosatlarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar bergan. O‘zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida ham bir qator tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsada, xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish hali to‘liq amalga oshirilmagan. Bu tadqiqot ushbu bilimlarni kengaytirishga qaratilgan.

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlardan foydalanilgan. Statistik ma‘lumotlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va xalqaro tajribalarning komparativ tahlili asosida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha O‘zbekistonga mos keluvchi strategiyalar ishlab chiqilgan. Ma‘lumotlar yig‘ish jarayonida rasmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Tahlil qilishda iqtisodiy modellashtirish, statistika va ekspert intervyulari metodlaridan foydalanilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqola kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganish asosida tayyorlangan. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Asosiy ma‘lumotlar mahalliy va xalqaro nashrlar, hukumat hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari hamda Jahon Banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma‘lumotlaridan olingan.
2. O‘zbekiston bo‘yicha kambag‘allik darajasi va uning o‘zgarishi, shuningdek, boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlar statistik tahlil qilindi. Ushbu ma‘lumotlar orqali mamlakatdagi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi baholandi.

O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish tajribasi boshqa davlatlar, jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu yondashuv mamlakatning mavjud strategiyalari va siyosatlarini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga yordam beradi.

TAHLILLAR

O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda ish o'rinlarini yaratish, bandlikni oshirish va mehnat bozori infratuzilmasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Masalan, 2018 yilda qabul qilingan "Yoshlar - kelajagimiz" davlat dasturi doirasida minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan. ¹⁴Kam ta'minlangan oilalarga beriladigan ijtimoiy yordam va subsidiya dasturlari kengaytirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni oshdi, bu esa qashshoqlik darajasini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yoshlarni kasb-hunar o'rgatish va ularni ish bilan ta'minlash orqali kambag'allik darajasini pasaytirishga qaratilgan turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali nafaqat kambag'allik darajasini qisqartirish, balki jamiytdagi mehnat resurslaridan samarali foydalanish ham ko'zlangan.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga doir amalga oshirilgan ba'zi ishlar bo'yicha statistik tahlillar:

Kambag'allik darajasi: 1- jadvalda Jini koeffitsienti ko'rsatilgan, bu ko'rsatkich daromadlarning teng taqsimlanish darajasini o'lchaydi. Jini koeffitsienti 0 va 1 orasidagi qiymatlarda bo'ladi:

- 0 koeffitsient to'liq tenglikni (hamma bir xil daromad olishini) anglatadi.

- 1 koeffitsient esa to'liq tengsizlikni (barcha daromadni bir odam olishini) ifodalaydi.

Yillik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqda:

- 2020-yilda Jini koeffitsienti 0.276 bo'lgan, bu O'zbekistonda daromadlarning nisbatan teng taqsimlanishini anglatadi.

- 2021-yilda bu ko'rsatkich biroz pasayib, 0.273 ga tushgan, bu esa tengsizlikning bir oz kamayganini bildiradi.

- 2022-yilda koeffitsient 0.283 ga ko'tarilgan, ya'ni daromadlar tengsizligi biroz oshgan.

- 2023-yilda ko'rsatkich 0.288 ga yetgan, bu esa tengsizlikning yana oshganini ko'rsatmoqda.

1-jadval. Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsienti), koeffitsientda.¹⁵

	Yillar			
	2020	2021	2022	2023
Jini koeffitsienti	0.276	0.273	0.283	0.288

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PF-5466-sonli "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/docs/-3826820>

¹⁵ [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2#:~:text=Aholi%20daromadlarining%20notekis%20taqsimlanishi%20\(Jini%20koeffitsienti\)](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2#:~:text=Aholi%20daromadlarining%20notekis%20taqsimlanishi%20(Jini%20koeffitsienti))

So'nggi yillarda mamlakatda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o'sishi kuzatilmoqda. Misol uchun, 2023 yil yakunlariga ko'ra, YAIM 6 % ga o'sdi. Bu iqtisodiy o'sish qashshoqlikni qisqartirishda muhim omil bo'ldi.

2-jadval. Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarda, yillik), mlrd.so'm¹⁶

	Yillar				2023-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish
	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot hajmi	668038	820536.6	995573.1	1192162.5	78 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, 2023-yilda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar 29% ga oshdi, bu esa ishlab chiqarish kengayishi, yangi ish o'rinlari ko'payishi va kelajakda kambag'allikni qisqartirish uchun barqaror asos yaratmoqda.

3-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati, mlrd.so'm (yillik)¹⁷

	Yillar				2023-yilda 2020- yilga nisbatan o'sish
	2020	2021	2022	2023	
Asosiy kapitalga investitsiyalar	95.6	102.9	100.2	123.4	29 %

Xalqaro tajribalar tahlili:

- Xitoy tajribasi: Xitoy 1978 yildan buyon jami 700 million kishini qashshoqlikdan chiqarishda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu hayratlanarli yutuqlarga qaramay, bugungi kunda ham Xitoyning milliy qashshoqlik chegarasidan pastda 56 millionga yaqin odam yashamoqda. 2020-yil mart oyida bo'lib o'tgan qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha seminarda Prezident Si Tszinpin¹⁸ Covid-19" kelishi va tarqalishiga qaramay, qashshoqlikka qarshi kurashda to'liq g'alaba qozonish uchun doimiy sa'y-harakatlarga chaqirdi. U shunday dedi: "Qashshoqlikni bartaraf etish maqsadlariga rejalashtirilgan tarzda erishish kerak. Biz kuchimizni ushbu qiyin vazifani hal qilishga sarflashimiz kerak". 2020 yilgacha barcha qishloq aholisi, qashshoqlashgan qishloqlar va tumanlar qashshoqlikdan qutulishi kerak deb takidlab o'tdi. Jamiyatning barcha qatlamlari qashshoqlikka qarshi kurashga safarbar qilingan. XKP boshchiligidagi Xitoy xalqi katta qat'iyat,

¹⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2#:~:text=Yalpi%20ichki%20mahsulot%20hajmi%20ishlab%20chiqarish%20usulida%2C%20joriy%20narxlarda%2C%20yillik>

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments#:~:text=Asosiy%20kapitalga%20investitsiyalarning%20o%20E2%80%98sish%20sur%20E2%80%98ati%20\(yillik\)](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments#:~:text=Asosiy%20kapitalga%20investitsiyalarning%20o%20E2%80%98sish%20sur%20E2%80%98ati%20(yillik))

¹⁸China's Uniquely Effective Approach to Poverty Alleviation. [China's Uniquely Effective Approach to Poverty Alleviation \(scrip.org\)](https://www.scrip.org/)

favqulodda sa'y-harakatlar va maqsadli chora-tadbirlar bilan qattiq mehnat qilmoqda. Yuqoridan pastga qashshoqlikka qarshi kurash mexanizmi samarali, samarali qashshoqlikni kamaytirish strategiyasiga aylandi.

- Janubiy Koreya tajribasi : Janubiy Koreyada qashshoqlikni kamaytirish "Samarali farovonlik" deb nomlangan modelga ergashadi. Aynan shu holat tadqiqotiga ko'ra, ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirish va boyligni teng taqsimlash bilan birga barcha Koreya fuqarolari uchun asosiy turmush darajasini oshirishga harakat qiladi. Janubiy Koreyaning qashshoqlikni kamaytirishdagi muvaffaqiyati qishloq xo'jaligi unumdorligi va qishloq turmush tarzi, eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish va urbanizatsiyaga, inson kapitaliga erta va barqaror investitsiyalarga qaratilgan chora-tadbirlarning ketma-ket kombinatsiyasi bilan bog'liq. Janubiy Koreyada kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va texnologiya sektorlariga qaratilgan investitsiyalar muhim rol o'ynadi. Bu tajriba O'zbekistonda ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan strategiyalarni o'rganish uchun muhimdir.¹⁹
- Meksika tajribasi: 1995 yilgi iqtisodiy inqirozdan so'ng qashshoqlikning ko'payishiga duch kelgan Meksika hukumati qashshoqlikni kamaytirish strategiyasini bosqichma-bosqich o'zgartirib, universal tortilla subsidiyalariga chek qo'ydi va buning o'rniga "PROGRESA" orqali inson kapitaliga yangi investitsiyalarni mablag' bilan to'ladi. Meksikada kambag'allikni qisqartirish uchun "PROGRESA" kabi ijtimoiy dasturlar joriy etildi, ular kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va oziq-ovqat yordamlarini ko'rsatdi. O'zbekiston bu tajribadan ham foydalanishi mumkin, ayniqsa ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishda.²⁰

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan strategiyalar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda mamlakatda kambag'allik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. 2023 yilda kambag'allik darajasi 11% ga tushgan bo'lib, bu 2018 yilga nisbatan 4 foiz bandga pasayishni anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy yordam dasturlarining samaradorligini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy yordam va subsidiya dasturlari, shuningdek, ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan tashabbuslar kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, "Yoshlar - kelajagimiz" davlat dasturi orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan va bu yoshlar orasida ishsizlik darajasini pasaytirishda muhim omil bo'lgan. Shuningdek, ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining oshishi kam ta'minlangan oilalarga sezilarli yordam bergan. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga qaratilgan sarmoyalar, aholi turmush darajasini oshirishda va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2023 yilda ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalar 10% ga oshgan, bu esa yosh avlodning bilim darajasi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat

¹⁹ South Korea poverty reduction. <https://borgenproject.org/south-korea-poverty-reduction/> - :~:text=Poverty%20reduction%20in%20South%20Korea%20follows%20a%20model%20known%20as,to%20the%20same%20case%20study.

²⁰ Mexico poverty reduction. <https://weall.org/resource/mexico-poverty-reduction-> :~:text=Share%3A,in%20human%20capital%20through%20PROGRESA.

qildi. O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish strategiyalari xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan bo'lib, bu muvaffaqiyatli tajribalarni moslashtirish orqali mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkonini berdi. Masalan, Xitoyning iqtisodiy o'sishga qaratilgan strategiyasi va Janubiy Koreyaning ta'limga qaratilgan yondashuvlari O'zbekiston uchun muhim o'rganish manbai bo'ldi. Infratuzilma rivojlanishi kambag'allikni qisqartirishning yana bir muhim omili sifatida namoyon bo'ldi. Hududlararo infratuzilmani yaxshilash, qishloq joylarda yashovchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va investitsiyalarni jalb qilish kambag'allikni kamaytirish bo'yicha sezilarli natijalarni ta'minladi. Shunga qaramasdan, mamlakatda kambag'allikni qisqartirish yo'lida hali bir qator muammolar mavjud. Xususan, ishsizlik darajasini pasaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, shuningdek, ijtimoiy yordam tizimining samaradorligini oshirish borasida qator ishlar qilish zarur. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni chuqurroq o'rganish va ulardan foydalanish orqali mamlakatdagi mavjud strategiyalarni takomillashtirish imkoniyati ham mavjud.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy yordam dasturlarini kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar sezilarli natijalar berayotgani tahlillar orqali aniqlandi. So'nggi yillarda mamlakatda kambag'allik darajasi pasayib, ijtimoiy himoya tizimi va infratuzilma rivojlanishida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga qaratilgan e'tibor ham aholining turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Biroq, hali oldinda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar mavjud. Ishsizlik darajasini yanada pasaytirish, ta'lim sifatini oshirish va qishloq joylarda yashovchi aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish O'zbekiston uchun muhim vazifalar bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajribalar, xususan, Xitoy, Janubiy Koreya va Meksika tajribalari O'zbekiston uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

1. Kambag'allikni qisqartirish uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun, hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish orqali aholi o'rtasida o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.
2. Mamlakatda ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy kasb-hunar o'rgatish dasturlarini kengaytirish va yoshlarni raqobatbardosh kasblarga tayyorlash orqali ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish zarur.
3. Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordamni kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin tutadi.
4. Mamlakatning barcha hududlarida infratuzilma rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarda, aholini zamonaviy xizmatlar va imkoniyatlar bilan ta'minlash uchun zarurdir.

5. Kambag'allikni qisqartirishda xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish orqali samarali strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha taklif va tavsiyalar: Kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish va ular samaradorligini oshirish zarur. Ta'lim va kasb-hunar o'rgatish tizimini takomillashtirish orqali yoshlar va ishsiz fuqarolarni mehnat bozoriga kirib kelishini qo'llab-quvvatlash lozim. Mamlakatning barcha hududlarida infratuzilmani rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalarning samaradorligini oshirish uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali yanada katta natijalarga erishishi mumkin. Ushbu sa'y-harakatlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi va milliy taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PF-5466-sonli "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/docs/-3826820>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2#:~:text=Aholi%20daromadlarining%20notekis%20taqsimlanishi%20\(Jini%20koeffit-sienti\)](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2#:~:text=Aholi%20daromadlarining%20notekis%20taqsimlanishi%20(Jini%20koeffit-sienti))

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2#:~:text=Yalpi%20ichki%20mahsulot%20hajmi%20\(ishlab%20chiqarish%20usulida%20C%20joriy%20narxlarida%20C%20yillik\)](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2#:~:text=Yalpi%20ichki%20mahsulot%20hajmi%20(ishlab%20chiqarish%20usulida%20C%20joriy%20narxlarida%20C%20yillik))

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments#:~:text=Asosiy%20kapitalga%20investitsiyalarning%20o%E2%80%98sish%20sur%E2%80%98ati%20\(yillik\)](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments#:~:text=Asosiy%20kapitalga%20investitsiyalarning%20o%E2%80%98sish%20sur%E2%80%98ati%20(yillik))

China's Uniquely Effective Approach to Poverty Alleviation. [China's Uniquely Effective Approach to Poverty Alleviation \(scirp.org\)](http://scirp.org)

South Korea poverty reduction. <https://borgenproject.org/south-korea-poverty-reduction/>
:~:text=Poverty%20reduction%20in%20South%20Korea%20follows%20a%20model%20known%20as,to%20the%20same%20case%20study.

Mexico poverty reduction. <https://weall.org/resource/mexico-poverty-reduction> - :~:text=Share%3A,in%20human%20capital%20through%20PROGRESA.



SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY OPERATSIYALARNI AVTOMATLASHTIRISHNING STRATEGIK ZARURATI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Muallif: To'q'liyev Abdirauf Bahodir o'g'li¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti¹, Doktorant¹

E-mail: abdirauftukliev@gmail.com¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13926062>

ANNOTATSIYA

Sanoat korxonalarining moliyaviy holatini muntazam ravishda tahlil qilmasdan samaradorlikni oshirish biroz mushkul jarayon hisoblandi. Ushbu ma'lumotlarni muntazam ravishda tahlil qilish uchun esa ma'lumotlarni tez va bexato yetkazib beruvchi vositalar talab qilinadi, ko'rinib turibdiki bugungi kunning tez rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti xatolar va kamchiliklarni kechirmaydi. Kuchli tahlil kelajak uchun muhim strategiyalarning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari asrida, bozor iqtisodiyoti boshqa sohalar kabi kerakli ma'lumot va yangiliklarga ehtiyoj sezadi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, moliyaviy holat, samaradorlikni oshirish, tahlil, bozor iqtisodiyoti

Doimiy axborot oqimini ta'minlash lozim. Har bir sanoat korxonasida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish esa ushbu tahlillar uchun birlamchi ma'lumotlarni yig'ishda katta yordam beradi. Keling biz siz bilan Moliyaviy jarayonlarni tahlil qilishda kerak bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlarni ko'rib o'tamiz, ko'rib o'tish jarayonida ularni 3 bosqichda tahlil qilamiz, yani aynan qayerdan ushbu ma'lumotlarni olamiz, uzliksiz olib turish uchun qanday avtomatlashtirishimiz kerak va ushbu ma'lumotlar kelajakdagi strategiya uchun qanday xizmat qiladi.

Birinchi asosiy ko'rsatkichlar guruhi bu - Moliyaviy ko'rsatkichlar guruhi, ushbu ko'rsatkichlar guruhiga kiruvchi ma'lumotlarni manbalari bo'lib buxgalteriya hisobotlari, bank hisobotlari va ichki moliyaviy tizimlar xizmat qiladi. Bundan tashqari mijozlarning to'lovlarini real vaqt rejimida qabul qiluvchi API lar kerak bo'ladi. Ularni avtomatlashtirish uchun esa hozirda dunyoda keng qo'llanilayotgan ERP yani Enterprise Resource Planning tizimlarini integratsiya qilish lozim. Ushbu tizimlar korxonaning umumiy resurslarini rejalashtirishga mo'ljallangan tizimlar bo'lib ular tizimlari tashkilotning barcha asosiy jarayonlarini yagona platformada integratsiya qiladigan dasturiy ta'minotdir. ERP tizimlari odatda turli bo'limlar va operatsiyalar, masalan, buxgalteriya, sotish, xaridlar, ishlab chiqarish, inventar boshqaruvi va kadrlar bo'limini bitta tizim ostida birlashtiradi. Bu tizimlar real vaqt rejimida ishlaydi va turli ma'lumotlarni bir joyda jamlab, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali esa korxonaning moliyaviy barqarorligini va rivojlanish salohiyatini ko'rish mumkin.

Moliyaviy ko'rsatkichlarning sog'lom bo'lishi investitsiyalarni jalb qilish, qarz olish imkoniyatlarini oshirish va o'sish rejaları uchun juda ham zarur hisoblanadi.

Ikkinchi ko'rsatkichlar guruhi - Operatsion ko'rsatkichlar guruhi bo'lib ularga kiruvchi ma'lumotlar manbalari ishlab chiqarish bo'limi hisobotlari, inventar tizimlari, va zavod monitoringi tizimlari hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va optimallashtirish uchun IoT (Internet of Things) sensorlaridan foydalanish zarur. IoT tizimlari ishlab chiqarish liniyasidagi turli jarayonlar, uskunalar va resurslar holatini uzluksiz kuzatib boradi.

Avtomatlashtirish jarayoni ERP tizimlari bilan integratsiya qilinishi bilan kengaytirilishi mumkin. ERP tizimi IoT sensorlaridan kelgan ma'lumotlarni birlashtiradi va real vaqt rejimida ishlab chiqarish samaradorligini kuzatishga imkon beradi. Bu orqali korxonalar xarajatlarni kamaytirish va resurslardan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Operatsion ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash, narxlarni optimallashtirish, va resurslar samaradorligini oshirish mumkin. Bu kelajakdagi raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun muhimdir, chunki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Uchinchi ko'rsatkichlar guruhi - Bozor va sotuv ko'rsatkichlari bo'lib ushbu guruhga kiruvchi ma'lumotlarning manbalari CRM (Customer Relationship Management) tizimlari, sotuvlar hisobotlari, va marketing tadqiqotlari bo'lib xizmat qiladi. Mijozlar va sotuvlar haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish uchun CRM tizimlarini ishlatish tavsiya etiladi. CRM tizimlari orqali mijozlar bilan muloqot, sotuv hajmi, mijozlarning qoniqish darajasi kabi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Avtomatlashtirish uchun CRM tizimlarini sotuv va marketing platformalari bilan integratsiya qilish zarur. Bu tizimlar orqali avtomatik ravishda mijozlar va sotuvlar ma'lumotlari tahlil qilinib, marketing strategiyalari optimallashtiriladi va bozor segmentatsiyasi amalga oshiriladi. Google Analytics, Salesforce kabi marketing platformalari API-lar orqali uzluksiz ma'lumot yig'ishga yordam beradi.

Bozor va sotuv ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali korxonalar mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishi, sotuvlar hajmini oshirish yo'llarini aniqlashi, va yangi mahsulot yoki xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu o'sish va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va bozor ulushini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi ko'rsatkichlar guruhi - Resurslar guruhi bo'lib ularga kiruvchi ma'lumotlarning manbalari moliyaviy hisobotlar, aktivlar va majburiyatlar reyestrlari, va ish haqi tizimlari hisoblanadi. Resurslarni uzluksiz kuzatish va optimallashtirish uchun aktivlarni boshqarish uchun EAM (Enterprise Asset Management) tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, HRM (Human Resource Management) tizimlari orqali kadrlar ma'lumotlarini boshqarish va kuzatish mumkin.

ERP tizimlari bilan integratsiya qilinishi orqali kirishlar va resurslar ma'lumotlari avtomatlashtirilgan holda kuzatilib boriladi va bu resurslarning holati va yetarililigini monitoring qilish imkoniyatini beradi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va uzluksiz ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Kirimlar va resurslarni tahlil qilish orqali korxonalar uzoq muddatli rivojlanish uchun zarur bo'lgan aktivlarni boshqarish va majburiyatlarni bajarish uchun strategiyalar ishlab chiqishi mumkin. Resurslarning barqarorligi va ularning samaradorligi korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Beshinchi ko'rsatkichlar guruhi - Risk tahlili ko'rsatkichlari guruhi bo'lib ularga kiruvchi ma'lumotlarning manbalari valyuta bozorlari, kredit reyting agentliklari, va ichki xavf boshqaruvi hisobotlari orqali taqdim etiladi. Risklarni real vaqt rejimida tahlil qilish uchun Risk Management Information Systems (RMIS) tizimlaridan foydalanish mumkin. RMIS tizimlari yordamida valyuta kurslarining o'zgarishi va foiz stavkalari kabi risklar kuzatilib, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va prognoz qilish mumkin.

ERP tizimlari bilan integratsiya qilinishi orqali risklarni avtomatik ravishda kuzatish va tahlil qilish imkoniyati mavjud. AI (sun'iy intellekt) va big data texnologiyalaridan foydalangan holda risklar prognozlanadi va strategik qarorlar qabul qilinadi.

Risk tahlili orqali korxonalar kutilmagan yo'qotishlardan himoya qilish, tavakkalchilikni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Risklarni samarali boshqarish kelajakdagi investitsiya va o'sish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Oltinchi ko'rsatkichlar guruhi - Prognozlar uchun qo'shimcha ma'lumotlar guruhi bo'lib ularga kiruvchi manbalari tarixiy moliyaviy ma'lumotlar, bozor tadqiqotlari va tashqi ma'lumotlar manbalaridir. Tarixiy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun AI va Machine Learning algoritmlaridan foydalanish mumkin. Bu algoritmlar yordamida olingan ma'lumotlarga asoslanib kelajakdagi rivojlanish prognoz qilinadi.

ERP tizimlari bilan integratsiya qilinishi orqali tarixiy ma'lumotlarga asoslangan prognoz modellarini avtomatlashtirish mumkin. ERP tizimi real vaqt rejimida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kelajakdagi strategiyalarni belgilash uchun zarur bo'lgan aniqlikni ta'minlaydi.

Prognozlar uchun qo'shimcha ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kelajakdagi o'sish imkoniyatlarini aniqlash, rivojlanish yo'nalishini belgilash va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Bu korxonaga raqobatbardoshlardan oldin o'sish imkoniyatlarini sezishga yordam beradi va muvaffaqiyatli strategik qarorlar qabul qilishda ko'maklashadi.

Sanoat korxonalarida moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish — bu nafaqat zamonaviy texnologiyalar davrining talabiga moslashish, balki barqaror rivojlanish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun strategik asosdir. Bozor iqtisodiyotining dinamikasi va raqobatning keskinligi sharoitida korxonalar uchun moliyaviy jarayonlarni tezkor, aniq va izchil tahlil qilish imkoniyati yaratadi. ERP tizimlari va ularning avtomatlashtirish imkoniyatlari tufayli korxonalar o'z moliyaviy ko'rsatkichlarini yanada chuqurroq tahlil qilish, xarajatlarni optimallashtirish va resurslarni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Moliyaviy avtomatlashtirishning asosiy foydalaridan biri — vaqt va resurslarni tejash orqali korxonalar faoliyatini strategik yo'naltirishdir. Bunda moliyaviy barqarorlik va kelajakdagi o'sish salohiyatini baholash yanada aniqroq bo'ladi, bu esa korxonani tezkor va asosli qarorlar qabul qilishga undaydi. Operatsion va bozor ko'rsatkichlar tahlili esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozor imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Har bir ko'rsatkich to'g'ri tahlil qilinishi orqali korxonalar mijoz

ehtiyojlariga javob berish, xarajatlarni kamaytirish va foydani maksimal darajada oshirish imkoniga ega bo'lishadi.

Bundan tashqari, xavflarni oldindan aniqlash va boshqarish moliyaviy yo'qotishlar xavfini minimallashtiradi. Risklarni boshqarish tizimlari orqali valyuta kurslarining o'zgarishi, kredit bozoridagi o'zgarishlar va iqtisodiy beqarorlik kabi xavflarga tezda javob berish mumkin. Shuningdek, tarixiy ma'lumotlarga asoslangan prognozlar korxonaga raqobatchilardan oldin o'sish imkoniyatlarini ko'rish va rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda yordam beradi.

Shunday qilib, moliyaviy avtomatlashtirish nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki korxonaning ichki va tashqi jarayonlarini mukammallashtirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali uzluksiz axborot oqimi ta'minlanib, samaradorlik va raqobatbardoshlik oshadi. Ushbu jarayon orqali korxonalar o'z iqtisodiy barqarorligini mustahkamlab, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalar joriy etish va muvaffaqiyatli rivojlanish sari dadil qadam tashlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, moliyaviy avtomatlashtirishning ahamiyati shundaki, bu korxonalarini nafaqat vaqt va resurslarni tejash, balki ularni yangi rivojlanish bosqichlariga olib chiqadi. Shunday ekan, korxonalar zamonaviy avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda, o'z kelajagini shakllantirishi va o'sishga yo'naltirilgan strategiyalarni yaratishi zarur. Bu esa sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorlik va muvaffaqiyatga erishishda kuchli raqobat afzalligiga ega bo'lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Cumming, Douglas & Schvienbacher, Armin. (2016). Fintech Venture Capital. SSRN Electronic Journal. 10.2139/ssrn.2784797.

Temelkov, Zoran. (2020). Differences between traditional bank model and fintech based digital bank and neobanks models. 8-15.

Abutidze, Gocha. (2021). Bank transformation process in an unstable global environment. *piretc-Proceeding of The International Research Education & Training Centre*. 104. 57-69. 10.36962/ECS104/1-2-57.

Hidayat, Adrian. (2021). Banks in Midst of Fintech and Neobanks. *eCo-Buss*. 3. 44-47. 10.32877/eb.v3i2.190.

Asma, Umme & George, Gisa & Johnson, Johnsy. (2022). A Study On Challenges And Future Of Neobanks In India. *International Journal of Early Childhood Special Education*. 14. 2022. 10.9756/INT-JECSE/V14I4.71.

Gorodianska, Larysa & Tetiana, Nosenko & Vember, Viktoriia. (2019). Neobanks Operations and Security Features. 839-842. 10.1109/PICST47496.2019.9061268.

Louis, John & Jang, Beumhoo. (2022). A comparative legal study on neobank between South Korea and Indonesia. *Journal of Law and Policy Transformation*. 109. 10.37253/jlpt.v7i1.6753.

Micheli, Anna & Calce, Anna Maria & Di Nallo, Loris. (2023). Value creation in fintech sector. *Pressacademia*. 10.17261/Pressacademia.2023.1688.

Stojakovic-Celustka, Suzana. (2023). FinTech and Its Implementation. 10.1007/978-3-031-22228-3_12.



asr-conference.com